

**O‘ ZBEKISTON RESPUBLIKASIOLIY VA O‘ RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGITOSHKENT DAVLAT O‘ ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ zbek tili va adabiyotini o‘ qitish fakulteti

“Himoyaga
tavsiya etilsin”
Fakultet dekani

f.f.n., B. Abdushukurov
“___” - ____ 2018-y.

5111200 – O‘ zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘ nalishi IV kurs 402-guruh
talabasi Saidova Gulnozaxonning “**Umumta’lim maktablarida so’z yasalishini
o’qitish metodikasi**” mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:
M.Umrzoqova
“O‘zbek tilini o‘qitish
metodikasi” kafedrasи o‘ qituvchisi

“Himoyaga tavsiya etilsin”

“O‘zbek tilini o‘ qitish metodikasi” kafedrasи mudiri,
F.F.D. I.Azimova

TOSHKENT – 2018

MUNDARIJA

I BOB. SO‘Z YASALISHI TILSHUNOSLIKNING BIR BO‘LIMI SIFATIDA

- 1.1.O‘zbek tilida so‘z yasalishiga doir qarashlar tavsifi
- 1.2. So‘z yasalishi talqini
- 1.3.So‘z yasalishi predmetga oid kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil sifatida

II BOB. SO‘ZYASALISHINIO‘QITISHMETODIKASI

- 2.1.So‘z yasalishini o‘qitishda o‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish usullari.
- 2.2. So‘z yasalishi usullarini o‘qitishda adabiy manbalardan foydalanish.
- 2.3. So‘z yasalishini o‘qitishda noan’anaviy usullardan foydalanish texnologiyasi

III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI

3.1. Mavzu yuzasidan tajriba sinov ishlari natijasi

3.2. Ochiq dars ishlanmasi

Xulosa

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Tayanch so‘zlarning o‘zbekcha-ruscha-inglizcha lug‘ati

Kirish

Mavzuning dolzarbliji. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qarori bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi— o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan — muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat ekanligi belgilab qo‘yilgan.¹ Hamda ushbu maqsadni amalga oshirish uchun qator vazifalarning bajarilishi shart qilib qo‘yilgan. Davlat ta’lim standartida belgilab qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun bugungi kun o‘qituvchisi yangiliklardan xabardor bo‘lishi, o‘z ustida tinmay ishlashi, innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida unumli foydalanishi talab etiladi. Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash uchun bizda yetarlicha asos bor. Buni respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoev 2016-yil 14- dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida: “... bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir”² - deb ta’kidladi.Tasdiqlangan standartda umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi sifatida o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetentsiyani rivojlantirish, o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetentsiyalarni shakllantirishdan iboratligi belgilab qo‘yilgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tili taraqqiyotini o‘rganishda, leksik qatlamdagi yangilanish jarayonlari, tilning lug‘at boyligining ortib borishida

¹Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами.2017. 14(774)-сон. -Б.140

²Mirziyoev Sh.M. Erkinvafarovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mardva olajanobxalqimiz bilan birga quramiz // Xalq so‘zi. 2016- yil 16 dekabr.

so‘z yasalishi hodisasini o‘rni beqiyosligini o‘quvchilarga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh, qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. So‘z yasalishi mavzusini o‘qitishda turli usullar va vositalardan, grafik organayzerlardan foydalanish ona tili ta’limining sifatini oshirishda muhim ahamiyatga egaligi mvzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. So‘z yasalishi, so‘z yasalish usullari masalasi o‘zbek tilshunosligida A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, R.Sayfullayeva, Sh.Mirzaqulovlar tomonidan tadqiq etilgan.³ So‘z yasalishi mavzusini o‘tish yuzasidan o‘quv qo‘llanma va darsliklarda metofik tavsiyalar keltirilgan.⁴

Bitiruv ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalsri bilan bog‘liqligi. Mazkur ish Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasining “2016-2018-yillarga mo‘ljallangan BMI mavzulari banki” istiqbol rejasi asosida amalga oshirildi.

Bitiruv ishining maqsadi va vazifalari. Mazkur bitiruv ishi bo‘lg‘usi ona tili va adabiyoti o‘qituvchilarigao‘zbek tilining so‘z yasalishi tarkibi, so‘z yasalishi tizimi va so‘z yasalishi usullarini tushuntirishda grafik organayzerlardan foydalanish yuzasidan metofik tavsiyalar berish, o‘quvchilarning nutqiy kompetentligini oshirishda qo‘llaniladigan innovatsion usullar to‘g‘rida ma’lumot berish asosiy maqsad qilib olingan.Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilgan:

- so‘z yasalishihaqidagi nazariy qarashlarni o‘rganish;
- so‘z yasalishiga doir adabiyotlarda berilgan nazariy ma’lumotlarni tahlil qilish;

³Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. -Тошкент: Фан, 2010;Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992; Мирзақулов Ш. Ўзбек тилида сўз ясалиш маъноси ва парадигмаси.Филол.фан.номз.дисс...автореф.: Самарқанд: 1995; Сайфуллаева Р., Менглиев Б ва бошқалар.Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, 2009;

⁴G‘ulomov A., Qodirov M va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi.-Toshkent, 2012.

- so‘z yasalishimavzusinio‘qitish jarayonida pedagogika, psixologiya va o‘zbek tili fani nazariyasi hamda amaliyotiga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- so‘z yasalishi mavzusinio‘qitishda grafik organayzerlardan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ona tili o‘qitishdagi ahamiyatini yoritish;
- so‘z yasalishi mavzusinio‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishimkoniyatlarini ochib beradigan vositalarni ishlab chiqish;

Bitiruv ishining obyekti va predmeti sifatida hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘z yasalishi hodisasi, u haqdagi turlicha qarashlar, o‘quvchilarga so‘z yasalishimavzuni o‘qitishda foydalaniladigan samarali usullari tanlandi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Ishda o‘zbek mutafakkir va davlat arboblarining ma’naviyat, ma’rifat, milliy va umumbashariy qadriyatlar to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari, milliy til va madaniyatning rivojlanish tarixi, taraqqiy etish yo‘llari haqidagi qarashlari, so‘z yasalishiga oid qilingan tadqiqotlar metodoligik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishda so‘z yasalishi, so‘z yasalish usullarini o‘qitishga oid uslubiy ko‘rsatma va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Birituv malakaviy ishi O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasining qo‘shma yig‘ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan. Tadqiqot natijalari bo‘yicha Yakkasaroy tumanidagi 73-maktabda ochiq dars tashkil qilindi.

Bitiruv ishining nazariy-amaliy ahamiyati. Ishimizda bayon etilgan ilmiy-metodik xulosalardan umumiy o‘rta ta’limda ona tili fanidan so‘z yasalishiga oid mavzularni o‘tishda foydalanish mumkin.

Bitiruv ishining tuzilishi va hajmi. Mazkur bitiruv ishi kirish, uch bob, xulosadan tuzilgan bo‘lib, ishning so‘ngida xulosa va tavsiyalar, adabiyotlar ro‘yxati berilgan. Ishning umumiy hajmi 64 sahifani tashkil qiladi.

I BOB. SO‘Z YASALISHI TILSHUNOSLIKNING BIR BO‘LIMI SIFATIDA

1.1. O‘zbek tilida so‘z yasalishiga doir qarashlar tavsifi

Til leksikasi lug‘aviy ma’nolarning o‘zgarishi, so‘z yasalishi va yangi so‘zlar hosil qilinishi omillari hisobiga muntazam boyib boradi. Biri boshqasi bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan bu omillar ayni o‘rinda til taraqqiyotini belgilashga xizmat qiladi. Ularning o‘zaro munosabatdoshligi shundaki, tilda yangi paydo bo‘lgan so‘zlar so‘z o‘zalshtirish bilan bog‘liq bo‘lsa, so‘z o‘zlashtirish lug‘aviy birliklar ma’nosni farqlash (differesiatsiya qilish)da muhim rol o‘ynaydi. Lug‘aviy birliklarning mazmuni paydo bo‘layotgan yangi so‘z (yoki tushuncha)ning ma’nosiga zid bo‘lmagan holatlarda ma’nolar o‘zgarishiga ehtiyoj (imkoniyat) vujudga keladi.⁵

So‘z yasalish nazariyasining birinchi bosqich (XX asrning 40-50-yillari) doirasida so‘z yasash jarayonlari morfologiyada qaralib, so‘z tuzilishi doirasida morfologik tuzilishdan so‘z yasalishi hamda morfem tuzulish izchil farqlangan bo‘lsa, ikkinchi bosqich (XX asrning 60-80-yillari) dorasida morfemika va so‘z yasalishi til qurilishida alohida sath hamda shu sathni o‘rganadigan mustaqil soha(bo‘lim) sifatida e’tirof etildi.

Bu sohalarning asosiy birliklari, mazmun-mundarijasи, boshqa sohalar bilan munosabati xususida ham muayyan bir umumiy fikr (to‘xtam)ga erishildi.

So‘z yasalishining tilshunoslikning bu va boshqa sohalaridan farqi shundaki, bu soha va uning birliklari til ilmidagi deyarli barcha sohalar bilan yaqin munosabatda va o‘zaro bog‘lanishda bo‘ladi. So‘z yasalishi tildagi yangi lug‘aviy birliklarning paydo bo‘lishi, tarkibiy xususiyatlari va tasnifi masalalari bilan ish ko‘rvuchи o‘ziga xos murakkab sohadir.

⁵Тўраходжаева А., Ҳасанова Д. Ўзлашма луғавий бирликлар -янги сўз ясаш манбаи./Ўзбек тили ва уни ўқитиши масалалари. Республика илмий-назарий конференцияси. -Тошкент: 2017. -Б.119

Hech bir til belgilari fondi oldindan mavjud bo‘lgan imkoniyat bilangina chegaralanib qolmaydi. Chunki jamiyatning ijtimoiy hayotida, ishlab chiqarish, xo‘jalik, kundalik turmushda yangi narsalar, ma’naviy-madaniy, mafkuraviy sohalarda yangi tushunchalar, ularni baholash, ularning yangi qirralarini ifodalash ehtiyoji tug‘ilib turadi. Mana shunday ehtiyoj obektiv ravishda tilda yangi so‘zlar, nomlarni talab qiladi. Til mana shu kommunikativ talabni qondirish uchun o‘zga tillardan so‘z o‘zlashtiradi yoki o‘zida mavjud ichki imkoniyatlardan yangi so‘zlar hosil qiladi. Ushbu xususiyat “til iqtisodi” deyilgan qonun bilan bog‘liqdir.

O‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi mavzusi keng o‘rganilgan. “So‘z yasalishi” termini tilshunoslida ikki ma’noda qo‘llanadi: bir tomondan, tilda yangi so‘z hosil qilish jarayonining o‘zini bildirsa, ikkinchi tomondan esa tilshunoslikning so‘z yasalish sistemasini o‘rganuvchi bo‘limni bildiradi. So‘z yasalishi tilda mavjud bo‘lgan so‘z yasalishi tarkibini va so‘z yasash usullarini o‘rganadi. Bularni o‘rganish hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi so‘z yasalish me’yorini belgilash, uning qonuniyatlarini to‘g‘ri tusunish imkoniyatini beradi.⁶

So‘z yasalish bo‘limi tilshunoslikning morfemika bo‘limi bilan chambarchas bog‘langan. So‘zning ma’noli qismlari o‘zak va affiksal morfemalar tilda yangi so‘z hosil qilishning muhim elementlari sanaladi.

So‘z yasalishi leksikologiya bilan ham aloqadordir. Til lug‘at tarkibining yangi yasalgan so‘zlar hisobiga boyib borishi, so‘z ma’nosining o‘zgarishi, uni boshqa ma’noda ishlatish yo‘li bilan yangi so‘z hosil qilish – bular so‘z yasalishining leksikologiya bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Grammatika esa so‘z yasalish jarayonini boshqaqaradi, yangi yasalgan so‘zlarning qaysi turkumga tegishli ekanligini belgilaydi. Har bir turkum doirasida so‘z yasashning shakl yasash bilan aloqada ekanligi, so‘z yasalishi va shakl yasalishida ko‘pincha bir xil yoki bir-biriga yaqin affikslarning ishlatilishi esa so‘z yasalish bo‘limining bevosita morfologiya bilan bog‘langanligini ko‘rsatadi.

⁶Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.198

So‘z yasalishi tufayli nominatsiya jarayoni ta’minlanadi. “Til va nutqdagi har qanday jarayon uning kommunikativ vazifasi aslida biror narsa, hodisa, xabar, voqeani nomlash va ushbu nom orqali o‘zgalarga yetkazishdir. Shu sababli ushbu nuammo bilan onomosiologiya va nominatsiya sohalari shug‘ullanadi”.⁷ Bu jarayon orqali insonning tashqi olam narsa-hodisalariga munosabati in’ikos etiladi. Inson ongining tashqi olam narsa-hodisalari va ularning munosabatlarining in’ikos etishi orqali tilde yangi lug‘aviy birliklar vujudga keladi. ularning (hosil bo‘lgan yangi lug‘aviy birliklarning) muayan lug‘aviy-grammatik guruhlarga (so‘z turkumlariga) taalluqligi tufayli so‘z yasalishining grammatika bilan munosabati paydo bo‘ladi. Lekin shu bilan bir qatorda, so‘z yasalishi tilshunoslikdagi bu sohalarning barchasidan farq qiladi. Bu farq so‘z yasalishining til qurilishidagi o‘ziga xos alohida tizim ekanligi bilan belgilanadi.

So‘z yasalishi bo‘yicha mukammal tadqiqotlar yaratgan olimlardan biri A.G‘ulomov bo‘lib, olimning ishlarida so‘z yasalishining barcha asosiy tushunchalari fan va tajribadagi eng yaxshi yutuqlar, shaxsiy kuzatishlari asosida o‘zining chuqur ilmiy talqinini topgan. A.G‘ulomov 1955-yilda so‘z yasalishiga nisbatan uning alohida soha ekanligi aytilgan bo‘lsa-da, “O‘zbek tilshunosligida, o‘zbek olimining “So‘z yasalishining o‘z ob’ekti bor” degan fikri rus tilshunosligida to‘la tan olininb bo‘linganidan so‘nggina, bu gapda jon borga o‘xshaydi, bu yerda bir gap bor qabilida o‘zbek tilshunoslarini “sergaklantirdi”. Afsuski, bu “sergaklanish” ham 1975-yilga kelib, o‘zbek tili grammatikasi nomli ilmiy grammatikaning vujudga kelishi, unda professor A.G‘ulomovning “so‘z yasalishi”ni tilshunoslikning, o‘zbek tili tizimning alohida sohasi sifatida amalda qayta asoslab berishi natijasi o‘laroq, 80-yillarning oxiriga kelib yuz berdi.”⁸

So‘z yasalishi yuqorida aytib o‘tilganidek keng o‘rganilgan, tabiiyki, ba’zi masalalarda o‘ziga xos qarashlar ham yuzaga kelgan. Quyida biz so‘z yasalish tarkibi, usullari, so‘z yasalishi haqigi qarashlar haqida so‘z yuritamiz.

⁷Хасанова Д. Сўз яалиши номинация назариясининг объекти сифатида.//Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари.(Республика илмий -назарий анжумани материаллари) № 5 -Тошкент.2011. –Б. 150

⁸Тожиев Ё., Алавутдинова Н.Ўзбек тили сўз яалиш тизимга доир талқинлар.//Ўзбек тилшунослиги: тарақкиёт тамоийлари, илмий муаммолар, истиқболдаги вазифалар. -Тошкент. 2013.- Б.105.

Leksikadagi taraqqiyotning eng asosiy yo‘llari boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish va so‘z yasashdir. So‘z o‘zlashtirish deganda bir tildan ikkinchi bir tilga bevosita leksema olish tushuniladi. Jamiyat taraqqiyotidagi o‘zgarishlar bevosita leksikada ham o‘z aksini topadi. So‘z o‘zlashtirish so‘z yasashga nisbatan ancha faol hisoblanadi, chunki so‘z o‘zlashtirish so‘z yasashga nisbatan oson kechadi. So‘z o‘zlashtirishning qonun-qoidalari tilshunoslikning leksikologiya bo‘limida o‘rganiladi. So‘z yasalishi esa tilshunoslikning alohida bo‘limi bo‘lib, u ikki xil ma’noda qo‘llanadi: 1) *umuman yangi leksik ma’noli so‘z hosil qilish*; 2) *tilshunoslikning so‘z yasalishi bilan bog‘liq hodisalarni o‘rganuvchi bo‘limini bildiradi*.

So‘z yasalishi, umuman, qanday usul, qanday vosita bilan bo‘lmasin yangi leksik ma’noli so‘z hosil qilishdir. Masalan, *suv-chi* (-chi) qo‘shimchasi bilan yasalgan), *gulbeor* (2 yasovchi asosning birikuvidan yasalgan) va boshqalar.

So‘z yasalishi tilshunoslikning ayrim bir bo‘limi sifatida so‘zlarining yasalishini (yasama so‘z), yangi leksik birlik hosil qilishning qonun-qoidalari, vositalarini, so‘z yasalishi strukturasini (tarkibini) tekshiradi. Demak, bu sohaning ob’yekti yasama so‘zdir.

Hozirgi o‘zbek tilida yasama so‘zlar miqdori lug‘at boyligining katta qismini tashkil qiladi. Bu yasalmalar hosil bo‘lishiga ko‘ra *tarixiy* (*dioxron*) va *hozirgi* (*sinxron*) yasalishga aloqador bo‘lishi mumkin. So‘z yasalishining tahlilida bu ikki hodisani farqlash lozim.

“Tildagi turli tabiiy ob’ektlarni ifoda etuvchi nomlar yaratilish davri, usuli, ma’no va vazifasiga ko‘ra farqlanadi. Bu so‘zlar paytda turli nominativ kategoriyanı tashkil qiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi *qo‘l*, *qorin*, *ish* so‘zlari qadimiy nomlardir. Ammo ular dan keyinchalik yasalgan hosilalar *qo‘lla*, *qo‘ldosh*, *qorindosh*, *ishla*, *ishchan*, *ishsevar* so‘zlari turli davrlarda yasalgan leksemalardir va ular o‘zbek tilidagi avvaldan mavjud so‘zlardan hosil qilingan”⁹

⁹Хасанова Д. Сўз ясалиши номинация назариясининг объекти сифатида.//Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари.(Республика илмий -назарий анжумани материаллари) № 5 -Тошкент.2011. –Б. 150

So‘z yasalishi *hozirgi* (*sinxron*) aspektga tayanadi. Bunda til taraqqiyotining ma’lum bir davri ko‘zda tutiladi. Masalan, hozirgi zamon o‘zbek tili. Bunda yasama so‘zning qismlari o‘rtasidagi munosabat jonli bo‘ladi, ya’ni so‘zning ma’nosini qismlarning ma’no munosabati bilan asoslash mumkin bo‘ladi. Masalan, *o‘r-im, ter-im, temir-chi, doira-chi, bilim-li, aql-li, randa-la, egov-la* va boshqalar.

Tarixiy (dioxron) yasalishda esa yasama so‘zning ma’nosini va shu ma’noning ifodalanish usulini qismlarning ma’no munosabatlari orqali asoslab bo‘lmaydi. Bu ma’no maxsus tekshirishlar orqali aniqlanadi. Masalan, *o‘t-loq, tosh-loq, qum-loq, qish-loq, ov-loq* so‘zlari ko‘rinishidan o‘xhash. Bularning hammasi aslida o‘rin ma’nosini ifodalovchi –*loq* qo‘shimchasi orqali yasalgan. Ammo dastlabki uch so‘z yasama sanalib, morfemalarga ajraladi (*o‘t-loq - o‘tli, o‘t ko‘p joy, tosh-loq – toshli, tosh ko‘p joy, qum-loq - qumli, qum ko‘p joy*). Keyingi ikkitasi (*qishloq, ovloq*) bunday qismlarga ajralmaydi, chunki bularda qismlarning semantik munosabati sezilmaydigan bo‘lib qolgan. Ya’ni *qishloq* so‘zi fasl bildiruvchi *qish* so‘zi bilan bog‘lanmaydi (*qish-la-q* «*qishda yashaydigan joy*»), *ovloq* so‘zi endi «*ov joyi, ov qilinadigan joy*» ma’nosida emas, balki ma’nosini o‘zgarib «*xilvat joy*» degan ma’noni bildiradi.

Hozirgi (sinxron) so‘z yasalishida kamida ikkita yasovchi komponent (qism) qatnashadi. Bulardan hech bo‘lmaganda bittasi mustaqil ma’noli (narsa, belgi, harakat va sh.k.) bo‘ladi. Yasama so‘zni yuzaga keltiruvchi bu qismlar *yasovchilar*, ularning o‘zaro munosabatidan (birikishidan) hosil bo‘lgan birlik *yasalma* (yasama so‘z) deyiladi.

Yasalmaning yuzaga kelishida qatnashuvchi mustaqil ma’noli qism yasovchi asos (yasalmaning asosi) hisoblanadi. Bunday asos sodda yasama so‘zda bitta, qo‘shma so‘zda birdan ortiq bo‘ladi: *ishchi*: *ish* – yasovchi asos, -*chi* – yasovchi qo‘shimcha, *ishchi* – yasalma; *toshko‘mir*: yasovchi asos – *tosh* va *ko‘mir*, *toshko‘mir* – yasalma.

So‘z shakl tarkibida leksik ma’no anglatuvchi qism bilan grammatik ma’no bildiruvchi qism farqlanadi. So‘z shaklning leksik ma’no bildiruvchi qismi leksema

deyiladi. Leksema grammatik ma’no ifodalovchi qism, shuningdek, so‘z yasovchi qo‘shilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

So‘z yasalishida qarindosh so‘zlarning tarkibi jihatidan aloqasi, o‘zaro bog‘langanligi tahlil qilinadi. Shuning uchun so‘z ayaslishi sistemasini o‘rganishda har bir konkret morfemaning (ham o‘zak morfema, ham affiskal morfema) so‘z yasovchilik xususiyati aniqlanadi. Shuningdek, grammatik tarkibi turlicha bo‘lgan so‘zlarning (tub va yasama so‘zlarning) yangi yangi so‘z hosil qilishdagi rolini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlarda so‘z yasalishi, so‘z turkumlarida so‘z yasalishi haqida turlicha qarashlar mavjud. Adabiyotlarning aksariyatida so‘z yasalishi asosan mustaqil so‘z turkumlariga xosligi ta’kidlangan. “So‘z yasalish hodisasi asosan mustaqil turkumlari uchun xos. Ot, sifat, fe’l va ravish turkumlarining tarkibi doim yangi yasalmalar bilan boyib turadi.”¹⁰ Bunday qarashni Q.Sapayevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv qo‘llanmasida ham uchratish mumkin.

Keyingi yillada e’lon qilingan ishlarda, xususan, A.Hojiyevning “O‘zbek tili morfologiysi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari” monografiyasida so‘z yasalishi haqida yangicha qarashlar ilgari surilgan. Tilshunos olim so‘z yasalishini o‘zbek tilida o‘rganilishi haqida so‘z yuritar ekan, tilning har bir sistemasining tadqiqi shu sistemani shakllantiruvchi til birligini belgilashdan boshlanishini, biroq o‘zbek tili so‘z yasalishi sistemasini tadqiq etishda ana shu asosiy, muhim va ma’lum faktga e’tibor berilmaganligini, ya’ni o‘zbek tili so‘z yasalish tizimi va uning til birligi – shakllantiruvchisi bormi, degan masala o‘rtaga qo‘ylganligi va bu haqda aniq bir fikr bildirilganligi yo‘qligini ta’kidlaydi.¹¹

A.Hojiyev ushbu monografiyasida o‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi, so‘z yasalish tarkibi, so‘z yasalish imkoniyati haqidagi mavjud qarashlarni tahlil qiladi. “So‘z yasalishi asosining mohiyatini belgilashda quyidagi ikki narsaga asoslanish kerak bo‘ladi: 1) yasama so‘z umuman so‘z (leksema)dan emas, balki uning

¹⁰Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.207.

¹¹Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. -Тошкент: Фан, 2010. –Б.141-142.

muyayan ma’nosи asosida yasaladi. Masalan, *harakatchan* so‘zi *harakat* so‘zining ma’nosи asosida –*chan* so‘z yasovchi morfemasi yordamida yasaladi. Ana shu ma’no *harakatchan* yasama so‘zi ma’nosining yuzaga kelishi uchun asos ma’no hisoblanadi. Bu yasama so‘z tarkibida *harakatchan* so‘zi va uning ma’nosи shunday xususiyatga (mohiyatga) ega ekan, bu so‘zning ma’nosи ham mustaqil ma’no hisoblanmaydi. Bu esa *harakatchan* so‘zi tarkibida “harakat”ni mustqail birlik, ya’ni so‘z (ot) hisoblashga yo‘l qo‘ymaydi. Demak, *harakatchan* yasama so‘zi tarkibidagi “harakat”ni so‘z yashash asosi deyish – shunday termin bilan yuritish, birinchidan, uning mustqail birlik emasligini qayd etsa, ikkinchidan so‘z *yasalish asosi* termini yasama so‘zning tarkibiy qismi ekanini aniq qayd etadi. Bu bilan *harakatchan* yasama so‘zning mohiyatini to‘g‘ri anglash, talqin etish osonlashadi. So‘z *yasalish asosi* yasama so‘zda yasama so‘z, hattoki qo‘shma so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin. Lekin ular ham yasama so‘z tarkibida mustaqil birlik hisoblanmaydi, chunki har qanday yasama so‘zda so‘z yashash asosi bitta bo‘ladi.”¹² Tilshunos olim, so‘z *yasalish asosi* haqidagi qarashlarini yakunlar ekan, so‘zning lug‘aviy ma’noli birlik sifatida so‘z *yasalishida*, lug‘aviy sistemaning til birligini hosil qilishda qatnashishi hamda so‘z *yasalishi* sistemasining til birligi hisoblanuvchi yasama so‘zning tarkibiy qismi (so‘z *yasalish asosi*) vazifasini bajarish bilan naqadar muhim mohiyatga, vazifaga ega bo‘lgan til birligi ekanligini ta’kidlaydi.¹³

O‘zbek tilshunosligida keying yillarda so‘z *yasalishi* mavzusida qilingan ishlarda yangicha qarshlar ilgari surilganligini ko‘rish mumkin. Tilshunoslikda mavjud adabiyotlarning aksariyatida o‘zbek tilida so‘z *yasalishining* quyidagi usullari keltiriladi. “O‘zbek tilida so‘z yashashning vositalari har xil bo‘lib, uning turlari shunday ko‘rinishlarga ega: 1) *fonetik usul*; 2) *semantik usul*; 3) *affiksatsiya (morphologik) usuli*; 4) *kompozitsiya (sintaktik) usuli14*

R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, M.Qurbanova va boshqalar hammuallifligidagi o‘quv qo‘llanmada biz tahlil qilgan yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan farqli

¹²Хожиев А.Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. -Тошкент: Фан, 2010.-Б.146-147

¹³Хожиев А.Кўрсатилган асар. -Б.147

¹⁴Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент. 2009. Б.89

ravishda so‘z yasalishi alohida bo‘lim sifatida keltirilmagan. Har bir mustqil so‘z turkumlarini o‘rganish jarayonida shu so‘z turkumlarining ichida derivatsiya kichik mavzu sifatida keltirilgan. Yuqorida keltirilgan adabiyotlardan farqli ravishda bu adabiyotda “Olmosh derivatsiyasi” mavzusi ostida olmosh yasalishi haqida batafsil ma’lumot keltirilgan: “Olmosh o‘ziga xos so‘z yasalish tizimiga ega. U – affiksatsiya va kompozitsiya usuli. Ko‘rsatish, belgilash-jamlash, gumon, bo‘lishsizlik olmoshlari sirasida yasalmalari ham mavjud. Shuningdek, o‘zga turkum so‘zlaridan derivatsiyaning boshqa ko‘rinishlari asosida ham olmosh vujudga kelgan: [birov], [butun], [yalpi], [jami], [falonchi] kabi.”¹⁵ Mazkur adabiyotda olmoshning yasalish usullari hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lgan ikki usul yordamida amalga oshishi misollar asosida yoritib berilgan: “Affiksatsiya usuli gumon olmoshida uchraydi. Bu usul bilan asosan olmoshdan olmosh yasaladi.

Yasash asosiga qo‘silib, olmosh hosil qiluvchi affiksning so‘z yasash darajasi ham turlicha: [-alla], [-dir]. Bu affiksning har biri turli derivatsion qolip tarkibida olmosh yasaydi: [-alla+so‘roq olmoshi/narsa = 1) asosdan anglashigan narsa/predmetning gumonligi] qolipi hosilalari quyidagicha: [allakim], [allanima], [allanarsa], [allakim], [allaqayer] kabi.

[so‘roq olmoshi+ - dir= 1) asosdan anglashigan narsa/predmetning gumonligi] qolipi quyidagi olmoshlarni beradi: [kimdir], [nimadir], [qaerdadir], [qachondir], [qaysidir] kabi.

Kompozitsiya usuli. Bu usul vositasida qo‘shma (ko‘rsatish, so‘roq, belgilash, bo‘lishsizlik), juft (ko‘rsatish) va takroriy (ko‘rsatish, so‘roq, belgilash) olmoshlar yasaladi.”¹⁶

Nazariy ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, so‘z yasalishi haqida ba’zi jihatlarni e’tiborga olmaganda, qarshlar mushtarak. So‘z yasalishi hodisasi tilning lug‘at boyligini oshiruvchi asosiy hodisalardan biridir. Tilda mavjud so‘z yasovchi qo‘sishchalar yordamida so‘z yasalishi, so‘zning ma’nosida kengayish yoki ko‘chishning yuzaga kelishi lug‘at boyligining oshishida muhim ahamiyatga ega.

¹⁵Сайфуллаева Р., Менглиев Б.ва бошқалар.Хозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, 2009.-Б.248

¹⁶Сайфуллаева Р., Менглиев Б.ва бошқалар.Кўрсатилган манба, ўша бет.

Oliy ta’limda “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kursini, umumuy o‘rtalim tizimida ona tilio‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish davrning asosiy talabi, hayotning zaruriyati bo‘lib qolmoqda. Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda “innovation” – “yangilik kiritish”¹⁷ degan ma’noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida “innovatsiya” tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

Mavjud adabiyotlarda innovatsiyalarning ko‘rinishlari sifatida yangi g‘oyalar; tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar; noan’anaviy yondashuvlar; odatiy bo‘lmagan tashabbuslar; ilg‘or ish uslublari keltiriladi.¹⁸ So‘z yasalishi haqidagi qarashlarda yangicha fikrlari bilan avvaldan mavjud qarashlarni, xususan, ravish yasalishi haqidagi fikrlarni ilgari surgan A.Hojiyevning nazariy qarashlarini ham innovatsiya sifatida qabul qilish mumkin. A.Hojiyevning yuqorida tilga olingan asarida ravish yasalishini inkor etadi. So‘z yasalishi haqidagi qarashlarni tahlil qilar ekan, tilshunos olim so‘z yasalishiga mazkur adabiyotda keltirilgan talablar asosida yondashilsa, ravish so‘z turkumida yasalish hodisasi yo‘qligini ta’kidlaydai hamda bu mavzuda e’lon qilingan maxsus maqolani tilga oladi.¹⁹ Tilshunos olim mavjud adabiyotlarda ravish yasalishi, xususan, -cha affiksi bilan yasalgan ravishlar haqidagi qarashlarni tahlil qilar ekan, quyidagicha xulosaga keladi: “...o‘xhstish, o‘xshashlikni ifodalash so‘z yasovchilarga xos xususiyat emas, so‘z yasovchi yangi lug‘aviy ma’noli til birligi –yasama so‘z hosil qiladi. Qolaversa, birinchidan, *hozircha*, *yigitcha*, *bolacha*, *atroflichcha*...so‘zlari ‘so‘z yasalish asosi+so‘z yasovchi’ dan iborat tarkibli birlik-yasama so‘z emas, ikkinchidan, *shoshganicha*, *bizningcha*, *o‘zimcha*, *bilganimcha* so‘zlaridagi –cha so‘z shakliga qo‘shilayapti. So‘z yasovchi birlik esa bunday xususiyatga ega emas. Uchinchidan, *ukrayincha*, *bolacha*, *ilgaricha* yasama so‘z-lug‘aviy birlik emas, shuning uchun izohli lug‘atlarda bosh so‘z(izohlanuvchi so‘z) sifatida berilmaydi va hokazo.

¹⁷Хасанбоев Ж., Тўракулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О., Усманов Н. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Тошкент: Фан ва технология. 2009. – Б.154.

¹⁸Сайидахмедов Н. Ноанъанавий дарс. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003. – Б.56.

¹⁹Ҳожиев А. Ўзбек тилида равиш ясалиши тизими масаласига доир. /Ўзбек тили ва адабиёти, 2001.2-сон.-Б.42-46

Xullas, o‘zbek tilidagi *-cha* affiksi so‘z yasovchiga xos xususiyatlarga ega emas. U o‘z mohiyatiga ko‘ra shakl yasovchi morfemalarga, shuningdek, ko‘makchilarga o‘xshaydi”²⁰

1.2. So‘z yasalishi talqini

So‘z yasalishi tizimi doirasida so‘z yashash bazasi, so‘z yashash ma’nosи, so‘z yashash vositasi, so‘z yashash usuli, so‘z yashash tipi, so‘z yashash qolipi degan tushunchalar mujassamlashgan. Shularning hammasi ham til uchun zarur va ahamiyatli. Ayniqsa, so‘z yashash bazasi deb ataluvchi tushunchaning ahamiyati muhim va asosiyidir. “Bu tushuncha so‘z yashash vositasi, so‘z yashash qolipi kabi ichki qismlar munosabatidan tashkil topadi. So‘z yashash bazasining alohida muhimligi shundaki, u yangi so‘z hosil bo‘lishida *motivatsiya* asosi vazifasini o‘taydi. So‘z yasalish jarayonida motivatsiya asosi vazifasini o‘tashda til leksikasining o‘z qatlam birliklaridan tashqari, o‘zlashgan qatlam birliklarining ham roli va ahamiyati kattadir”²¹

So‘zlarning qo‘silishi vositasida yangi so‘zning vujudga kelishi, bir turkumdagи so‘zdan ikkinchi turkumdagи so‘zning hosil bo‘lishi so‘z yasalishini til qurilishidagi o‘ziga xos alohida tizim ekanligini belgilaydi.

O‘zbek tilshunosligida biz yuqorida tilgan olgan adabiyotlarda so‘z yasalishining quyidagi usullari ko‘rsatiladi: 1) *affiksatsiya usuli*; 2) *fonetik usul*; 3) *semantik usul*; 4) *kompozitsiya usuli*; 5) *abbrevatsiya usuli*.²²

1. Affiksatsiya usuli. Hozirgi o‘zbek tilida so‘z yasalishining keng qo‘llaniladigan eng unumli, yetakchi turi affiksatsiya usulidir. Asosga qo‘silib, shu asosning ma’nosи bilan bog‘liq bo‘lgan, ammo yangi bir leksik ma’nodagi so‘z hosil qilishda ishtirok etadigan affiks so‘z yasovchi affiks(qo‘sishma)deyiladi. Yangi

²⁰Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. -Тошкент: Фан, 2010.-Б.174-175

²¹Тўраходжаева А., Ҳасанова Д. Ўзлашма лугавий бирликлар -янги сўз ясаш манбаи. Ўзбек тили ва уни ўқитиш масалалари. Республика илмий-назарий конференцияси. -Тошкент: 2017. -Б.119

²²Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.202

leksik ma'noli so'z hosil qilishning yetakchi vositasi bo'lgan affiksatsiya o'zbek tilida suffiksatsiya xarakterida bo'ladi, ya'ni yasovchi qo'shimchalar yasovchi asosning oxiriga qo'shiladi.²³ Masalan, *terim-chi*, *olma-zor*, *til-shunos*, *oq-la*, *ish-la*, *bilim-li*, *intizom-li* kabi. Qisman so'z yasashda boshqa tillardan (asosan tojik tilidan) kirgan old qo'shimchalar (prefikslar) ham qo'llanadi. Masalan, *ba-quvvat*, *bar-vaqt*, *be-baho*, *no-o'rin*, *be-o'xshov*, *be-vafo*, *ser-hosil* kabi. Bunday yasalish asosan sifat turkumida uchraydi.

So'z yasovchi affikslar ko'pincha bir turkumdag'i so'zdan boshqa bir turkumga kiradigan yangi leksik birlik yasaydi. Masalan, *yoz*, *qish* – ot, *yozgi*, *qishki* – sifat; *ish*, *arra* – ot; *ishla*, *arrala-* fe'l; *oq*, *yaxshi*-sifat, *oqla*, *yaxshila* – fe'l; *supur*, *o'rfe'l*, *supur-gi*, *o'r-oq-otkabi*.

Ba'zan so'z yasovchi affiks bir turkumning o'ziga xos bo'lgan so'z yasashi mumkin. Bu ko'proq ot turkumiga xos. Masalan, *ish-ish-chi*, *temir-temir-chi*, *arava-arava-kash* (-soz); *qum-qum-loq*, *tosh-tosh-loq*, *o'rik-o'rik-zor*, *til-til* - *shunos*, *adabiyot-adabiyot-shunos*, *o'zbek-O'zbek-iston* kabi.

Tilda so'z yasalish tizimi shu tilning o'zigagina qarshli bo'lgan lisoniy birliklarga tayanib qolmaydi. So'z yasalish jarayonida tilga o'zlashgan o'zga til lug'aviy unsurlarining roli ham kam emas. Buning yorqin qiyofasini o'zbek tili so'z yasalishi jarayonidagi konkret amallar orqali ham ko'rsa bo'ladi.

O'zbek tili leksikasida boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar anchagina miqdorni tashkil qiladi. Ular orasida arab va fors-tojik tillariga xos lug'aviy birliklar alohida ahamiyatga ega. Ular o'zbek tili boyishining tashqi manbayi sifatida baholanadi. Ichki boyish manbai qo'shimchalar vositasida so'z yasash, so'zlarning qo'shilishi vositasida yangi so'zning vujudga kelishi, bir ma'no va talaffuziga ko'ra taraqqiyoti natijasida yangi bir so'zning yuzaga kelishi kabilardan iboratdir.

O'zbek tilining ichki boyishida o'zbek tili leksikasidagi arabcha, fors-tojikcha so'zlar ana shu jarayonlarning barchasida qatnashadi. Arab va fors-tojik lug'aviy o'zlashmalari affiksal so'z yasalishi jarayonida ayniqsa, faoldir. Ularga o'zbekcha affikslarning qo'shilishidan juda ko'p lug'aviy birliklar hosil bo'lган. Masalan,

²³Sapayev Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent, 2009. -B.68

birgina *-dosh* yoki *-chi* affikslarining arab lug‘aviy o‘zlashmalariga qo‘shilishi tufayli *sirdosh*, *sinf-dosh*, *maktab-dosh*, *maslk-dosh*, *maslahat-dosh*, *vatandosh*, *suhbat-dosh*, *jins-dosh*; *asoschi*, *aloqachi*, *g‘azal-chi*, *bayoz-chi* va hokazo ko‘plab yangi so‘zlar hosil qilingan.²⁴

So‘z yasovchi affikslar nutqda qo‘llanishi darajasiga ko‘ra *unumli*, *kam unum* va *unumsiz* affikslarga bo‘linadi.

Ko‘plab yangi so‘zlar yasash uchun xizmat qiladigan affiks *unumli yasovchi* deyiladi. Masalan, *ish-chi*, *xizmat-chi*, *ov-chi*, *a’lo-chi*, *mosla-ma*, *qaynat-ma*, *yasa-ma*, *ko‘rgaz-ma*, *tinch-lik*, *yaxshi-lik*, *katta-lik*, *kul-gi*, *turt-ki*, *supur-gi*, *qish-ki*, *ish-la*, *arra-la*, *oq-la*, *bosh-la*, *yaxshi-la*, *tarash-la* kabi.

So‘z yasashda kam qatnashadigan affiks *kam unum* yasovchi deyiladi. Masalan: *o‘r-oq*, *taro-q*, *bosh-oq*, *mehnat-kash*, *arava-kash*, *suz-gich*, *qir-g‘ich*, *yig‘-im*, *musobaqa-dosh* kabi.

Hozir yangi birlik hosil qilmaydigan affiks unumsiz yasovchi deyiladi. Unumsiz affikslar odatda bir necha so‘zdagina mavjud bo‘ladi. Masalan: *qop-ag‘on*, *chop-ag‘on*, *sez-gir*, *kes-kir*, *ish-chan*, *uyat-chan*, *san-a*, *kes-kin*.

Qaysi tilning o‘zlashma bazasida bo‘lishidan qat’iy nazar, hosil bo‘lgan yangi so‘z –lug‘aviy birliklar o‘zbek tilining xususiy boyligi sanaladi. E.Begmatov ishlarida o‘zbek tilining o‘z ichki lug‘aviy resursi bo‘lgan, o‘zbek tilining o‘zida asrlar davomida hosil qilingan so‘zlarni o‘zbekcha so‘zlr deb yuritadi. Bunday so‘zlearning ijodkori va egasi o‘zbek xalqi, o‘zbek tilidir. Chunki o‘zbekcha so‘zlarni o‘zbek tilida gaplashguchi etnos o‘z tilining imkoniyatlari asosida yasaydi, uning lisoniy ijodkoridir, “ya’ni o‘zbekcha so‘zlar o‘zbek tilining o‘z so‘zi, o‘z mahsulidir”²⁵

Affikslarning tug‘ilishida shunday hol ham uchraydi: *ba’zi* so‘zlar affiks funksiyasini bajarib, ergash morfemaga yaqinlasha boshlagan bo‘lsa ham, hali affiksga aylanib yetmagan bo‘ladi. Bular affiksoid sanaladi. Masalan, *bu uyda to‘rt*

²⁴Тўраходжаева А., Ҳасанова Д. Ўзлашма лугавий бирликлар -янги сўз ясаш манбаи./Ўзбек тили ва уни ўқитиш масалалари. Республика илмий-назарий конференцияси. -Тошкент: 2017. -Б.120

²⁵Бегматов Э.Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. -Тошкент: Фан, 1985. -Б.128

xona bor – biz ishxonada uchrashdik. Ko‘rinadiki, *xona* elementi o‘rni bilan so‘z bo‘lib ham qo‘llanadi, affiks bo‘lib ham qo‘llanadi (keyingi holda o‘rin bildiradigan affiksga juda yaqin keladi). U bir o‘rinda o‘zak morfema, boshqa o‘rinda – ergash morfema vazifasida keladi: *molxona*, *muzxona* (chog‘ishtiring: *muzlik*); *somonxona*(*o‘tinxona*, *maktabxona* (shevalarda: *maktab* so‘zidagi *-ma* elementining o‘rin ma’nosini o‘zbek tilida uqilmaydi: bu struktura o‘zbek tiliga yot, shuning uchun *-xona* morfemasi qo‘shilgan, kitob so‘zi bilan bog‘liq), *sartaroshxona* qiyoslang: (*sartaroshlik*). Jon elementi ham shunday: *jonim otam* = *otajonim*, *jon qizlar* = *qizlarjon*, *jon bolam* = *jonim bolam*, *bolajonim*, *jonginam* = *bolajonginam* kabi. O‘zbek tilida affiksoidlar (ular so‘z-affiks=so‘z deb ham yuritiladi) kam uchraydi.

2. Fonetik usul. Bu usul bilan so‘z yasash 2 hodisani ko‘zda tutadi: 1) so‘zning tarkibida fonetik o‘zgarish (tovush o‘zgarishi) qilish orqali yangi so‘z hosil qilish. Masalan, *bo‘r-bo‘z*, *tog‘-tosh*, *ko‘z-ko‘rmoq*, *tosh-tish* (qattiqlik belgisi asosida);

“Tilda, umuman, yangi ma’noning yuzaga kelishi bilan birga yangi so‘zning, haligacha lug‘at tarkibida bo‘limgan yoki variant shaklida “mustaqillasha olmay” yurgan elementning, til lug‘at tizimiga alohida so‘z sifatida kirib kelishi muhimdir: yoymoq, yozmoq, yon, yoq, yoqilg‘i, yonilg‘i kabi so‘zlar tahlili shuni ko‘rsatadiki (bunday so‘zlar anchagina), o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotida ko‘pgina so‘zlarga fonetik differensiyasiyadan asta-sekin semantik differensiyasiyaga qarab borish hodisasi sodir bo‘lgan. Shunga ko‘ra, hozirgi kunda *yoymoq* so‘zi alohida so‘z, yozmoq alohida so‘zdir. Ulardn biri ikkinchisining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan.”²⁶

2) urg‘uning o‘rnini o‘zgartirish bilan yangi so‘z yasash. Masalan, *yangi* (sifat), *yangi* (ravish), *hozir* (ravish) - *hozir* (tayyor), *tugma* (ot), *tugma* (fe'l), *akademik* (unvon) – *akademik* (nashr turi).

2. Semantik usul. Leksik – semantik yo‘l bilan so‘z yasash so‘z ma’nosining o‘zgarishi, ma’noning ko‘chishi orqali yangi ma’noli so‘zning yuzaga kelishidir.

²⁶Тожиев Ё., Алавутдинова Н.Ўзбек тили сўз ясалиш тизимга доир талқинлар //Ўзбек тилшунослиги: тараққиёт тамойиллари, илмий муаммолар, истиқболдаги вазифалар. -Тошкент. 2013.-Б.106-107

Semantik yoki leksik-semantik usul yordamida so‘z yasash tarixiy taraqqiyot jarayonida tildagi ayrim ma’nolar orasidagi bog‘lanishlarning yo‘qolib ketishi, so‘zning ayrim shakllarida yangi leksik ma’noning yuzaga kelishi kabi hodisalar bilan bog‘liq. Bunday hodisa tilning ko‘p yillar davomida rivojlanishi natijasida asta-sekin yuzaga keladi: *bo‘zI-gazlama*, ip *gazlama*, *bo‘z*. Masalan: *Arqog ‘ini ko‘rib, bo‘zini ol, Onasini ko‘rib, qizini ol.* (*Maqol*); *bo‘z II-ko‘kka moyil oq rang*. Masalan: *Safidan adashgan bo‘z turna bo‘zlar.* (*A.Suyun*); *bo‘z III-* ekin ekishga yaroqli, lekin uzoq vaqt ishlanmay, ekilmay yotgan yer. Masalan: *Poylab dehqon yo‘lini, bo‘rsillaydi bo‘z tuproq.* (*A.Suyunov*); *bo‘z IV-* turmush tajribasiga ega bo‘lmagan, xom bola, o‘s米尔. Masalan: *Ko‘pchiligidiz jang ko‘rmagan bo‘z yigit edik.* (*B.Imomov*). *Suluv qizing bor bo‘lsa, bo‘z bolaga yoqarsan.* («*Sharq yulduzi*»); *bo‘z V - o‘tsimon cho‘l o‘simligi- chalov*. Masalan: *Sarhovuz betini chalov bosgan.* (*S.Siyoyev*); *bo‘z VI-* qattiq, uvvos yig‘i. Masalan: *Unutmoq ham shunchami, Dunyo to‘ldi bo‘zimga* (*M.Yusuf*). Quyidagi so‘z ma’nolari ham xuddi shunday hodisa tufayli yuzaga kelgan: *yupqa* (qalin emas), (*yupqa qog‘oz-sifat*) - *yupqa* - ovqatning nomi (ot); *ko‘k* (rang) - *ko‘k* (osmon) - *ko‘k* (rezavor) - *ko‘k* (tikishning bir turi); *kun* (sutkaning bir qismi) – *kun* (quyosh, planeta).

Semantik usul bilan yasalgan so‘zlar bir turkum doirasida *ko‘k* (osmon) *ko‘k* (rezavor); *bo‘z* (gazlama) – *bo‘z* (o‘tsimon cho‘l o‘simligi) vaot hamda boshqa - boshqa so‘z turkumlariga tegishli bo‘lishi mumkin: *yupqa-sifat*, *yupqa* – ot, *ko‘k* (rang) *ko‘k* (osmon) *bo‘z* – ot (gazlama), *bo‘z* - sifat (*bo‘z* bola) kabi.

4. Kompozitsiya usuli. Kompozitsiya yo‘li bilan so‘z yasash birdan ortiq yasovchi asosni ma’no va mazmun jihatidan biriktirib, yangi leksik birlik - qo‘shma so‘z hosil qilishdir. Qo‘shma so‘zning sodda so‘zdan farqi shundaki, sodda so‘zda mustaqil ma’noli qism bitta. Qo‘shma so‘zda esa bittadan ortiq bo‘ladi. So‘z yasashning bu turi o‘zbek tilida eng faol usullaridan hisoblanadi. Masalan, *gulbeor, yeryong‘oq, uchburchak* kabi. Qo‘shma so‘z bir butun leksik ma’no – bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish – grammatik tushunchaning ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi. Demak, u bir so‘zdir. Qo‘shma so‘zning qismlari orasida grammatik aloqa bo‘lmaydi. Ammo semantik aloqa bor. U har qanday so‘z

birikmasida, gapda bir sintaktik vazifa bajaradi. Qo'shma so'zning asosiy qismi ikki komponentdan iborat bo'ladi. Qo'shma so'zlar ot, sifat, son, ravish va qisman fe'llarda keng tarqalgan. Masalan: *oqqush*, *beshbarmoq*, *uchburchak*, *urto'qmoq*, *belbog'*, *bilaguzuk* (ot); *mehmon-do'st*, *shifobaxsh*, *jigarrang* (sifat); *qaror qilmoq*, *ado etmoq*, *qo'l qo'yamoq* (fe'l); *hech qachon*, *bir lahza*, *bir zum*, *bir nafas* (ravish).

Agar ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'noli morfemadan tashkil topgan qo'shma so'zning biror komponenti (morfemasi) hozirgi o'zbek tilida mustaqil ma'nosini yo'qotgan bo'lsa, bu qo'shma so'z qo'shma so'zlik xususiyatini yo'qotadi – sodda so'zga aylanadi. Shuningdek, mustaqil so'z bilan ko'makchi (asosan ko'makchi fe'l) so'zning birikuvi ham qo'shma so'z emas. Bunday qo'shilmalar analitik shakl deyiladi. Masalan, *qalam bilan*, *ukam uchun*, *o'qib chiqmoq*, *yoza boshlamoq*, *ko'rib qolmoq*, *berib kelmoq* kabi (Bu haqda fe'lning analitik shakli qismiga qarang). Shuningdek, *kechqurun*, *zararkunanda*, *odamshavanda*, *dardisar*, *astoydil* kabi so'zlar aslida qo'shma so'z bo'lgan bo'lsa ham, hozirda sodda so'z hisoblanadi.

Qo'shma so'z bilan so'z birikmasining shaklan o'xshash tomonlari bor. Ammo ular orasida ham farq bor. Ular quyidagilar:

- a) qo'shma so'zning qismlari morfema, so'z birikmasining qismlari esa so'z bo'ladi;
- b) qo'shma so'zning qismlari yaxlitligicha bir leksik ma'no ifodalaydi, so'z birikmasining qismlari alohida-alohida leksik ma'no ifodalaydi;
- v) qo'shma so'zning qismlari orasida sintaktik aloqa bo'lmaydi, so'z birikmasining qismlari orasida sintaktik aloqa bo'ladi *tuyaqush*, *oybolta*, *xushfe'l*, *qo'ziqorin*-qo'shma so'z, *qush qanoti*, *oy yorug'i*, *asalari uyasi*, *qora portfelli* (yigit), *chust do'ppili* (bola), *o'n qavatli* (bino)-so'z birikmasi;
- g) qo'shma so'z qismlari o'z mustaqilligini (qisman yoki to'laligicha) yo'qotadi, so'z birikmasining qismlari esa o'z mustaqilligini saqlaydi;
- d) qo'shma so'z qismlari yaxlit bir savolga javob bo'ladi, so'z birikmasi qismlari alohida savolga javob bo'ladi va bir gap bo'lagi vazifasida keladi.

Davrlar o‘tishi bilan ayrim so‘z birikmalari bir so‘zga (qo‘shma so‘zga) aylanishi mumkin. Bunda so‘z birikmasi bir ma’no – leksik ma’no ifodalaydigan bo‘lib qoladi, birikma qismlari orasidagi sintaktik aloqa yo‘qoladi. Natijada aslida so‘z birikmasi bo‘lgan birlik qo‘shma so‘zga aylanadi. Bu jarayon tilshunoslikda sintaktik-leksikusul bilan so‘z yasalishi deb yuritiladi. Masalan, *qashqargul*, *tokqaychi*, *mingboshi*, *yurtboshi*, *yengiltabiat*, *kaltafahm*, *o‘zbilarmonlik baribir* (*bari-ega – bir-* kesim). Sintaktik – leksik usul bilan so‘z yasash tarixiy (dioxron) yasalish hisoblanadi.

So‘zning yasalish tarkibi so‘zning morfem tarkibidan ham, so‘zning morfologik tarkibidan ham farq qiladi.

So‘zni morfem tarkibiga ko‘ra tahlil qilinganda, uning (so‘zning) umuman tarkibi – morfemalari - ma’noli qismlari aniqlanadi. Masalan: *ter-im-chi-lar*, *o‘qi-t-uv-chi-lik-ni*, *paxta-zor-lar-ning* kabi.

So‘zning morfologik tarkibi tahlil qilinganda esa, uning (so‘zning) shakl yasash asosi va shakl yasovchi vosita ajratiladi. Bu vositalar esa so‘z tarkibida ikkitaladan oshmaydi: *shakl yasovchi asos*, *shakl yasovchi affiks*. Masalan: *paxtakorlarning* so‘ziningshakl yasovchi asosi *paxtakorlar*, shakl yasovchi affiksi – *ning*, *paxtakorlar* so‘zining shakl yasovchi asosi – *paxtakor*, shakl yasovchi affiksi – *lar*, *paxtakor* - so‘z.

So‘z yasash tarkibida esa *so‘z yasovchi asos* va *so‘z yasovchi affiksajratiladi*. Ya’ni so‘zda yasovchi qismlar ham ikkitadan oshmaydi (garchi so‘z tarkibida birdan ortiq o‘zak va so‘z yasaydigan birdan ortiq affiks bo‘lsa-da). Masalan, *bilimdonlik* so‘zining so‘z yasovchi asosi *bilimdon*, so‘z yasovchi affiksi – *lik*, *bilimdon* so‘zining so‘z yasovchi asosi *bilim*, so‘z yasovchi affiksi – *don*, *bilim* so‘zining so‘z yasovchi asosi – *bil*, so‘z yasovchi affiksi – *im*.

Yasama so‘zning asosi (so‘z yasalish asosi) qo‘shma so‘z yoki so‘z birikmasiga teng bo‘lishi mumkin. Bunday holatda ham yasovchi qismlar ikkitadan oshmaydi. Masalan, *belbog‘li* so‘zining yasovchi asosi – *belbog‘*, yasovchi affiks – *li*; *besh qavatli (bino)* yasovchi asos – *besh qavat*, yasovchi affiks – *li*; *ikki xonali* (*uy*) – *ikki xona* – yasovchi asos, *-li* yasovchi affiks. Ammo yasovchi affiks

qatnashmagan qo‘shma so‘zlarda yasovchi qismlarning hammasi **yasovchi asos** deb yuritiladi. Masalan, *toshko ‘mir tosh* – yasovchi asos, *ko ‘mir* – yasovchi asos - *toshko ‘mir* – yasalma; *oqqush - oq* - yasovchi asos, *qush* – yasovchi asos - *oqqush* – yasalma kabi.

Mavjud adabiyotlarda qo‘shma so‘zlar haqida ham qarashlar xilma-xilligiga duch kelish mumkim. “Qo‘shma leksemalar tarixan ikki va undan ortiq o‘zak (lug‘aviy morfema)larning shakliy va mazmuniy butunlikka aylanishi natijasida yuzaga keladi [*belbog*], [*oqsoch*], [*oqsoqol*], [*belkurak*]. Qo‘shma leksemalar ayniqsa, atoqlilashgan va atamalashgan leksemalar tarkibida ko‘p bo‘ladi: [*Yangiqo ‘rg ‘on*], [Miyonbozor], [*Eskijo ‘va*] va h.”²⁷ Ko‘pchinan olimlar qo‘shma so‘z deb qarayotgan ba’zi yasalmalarga A.Hojiyev shunday munosabat bildiradi: “O‘zbek tilida so‘z yasalish asosi va so‘z yasovchidan tarkib topmagan, qandaydir boshqacha yo‘l bilan hosil qilingan so‘zlar ham bor. Masalan, “qo‘shma so‘z” deb yuritilayotgan *belbog*, *otquloq*, *bodomqovoq* kabi so‘zlar , *ustqurma* kabi kalkalsh yo‘li bilan hosil qilingan so‘zlar shular jumlasidandir. Bunday so‘zlar yasama so‘z (so‘z yasash yo‘li bilan hosil qilingan so‘z) hisoblanmaydi. Shuning uchun ham yasama so‘zlarga xos mohiyatga ega bo‘lmaydi va yasama so‘zlar kabi guruhlanish, sistema hosil qilish xususiyatiga ham ega emas. Binobarin, ular so‘z yasalishining, so‘z yasalish sistemasining ob’ektiga kirmaydi.”²⁸

“O‘zbek tilining sistem leksikologiyasi asoslari” qo‘llanmasida so‘z yasalish qoliplari haqida ham so‘z yuritiladi. Qo‘llanma mualliflari so‘z yasalish qoliplarini ununmli so‘z yasalish qoliplari, so‘z yasalishining unumsiz (tarixiy)qoliplariga ajratadilar.²⁹ Qo‘llanma mualliflari sistem tilshunoslikda qolip tushunchasi haqida ma’lumot berib o‘tgach, so‘z yasalish qoliplari haqida han so‘z yuritadilar. “Til birliklarining o‘zaro birikish tizimi va bu birikishning - nutqiy hosilaning mohiyati sifatida tushuniladi. Ya’ni har qanday qolip ikki qismdan iborat bo‘ladi. Bu qismlar tenglamalar kabi (=) belgisi bilan ajratiladi. Masalan, 1) [[aniq ot]+ [chi]=(ot anglatgan narsa-predmet bilan shug‘ullanuvchi, aloqador shaxs atamasi]; 2) [ot]+ [

²⁷Неъматов X., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. -Тошкент: Ўқитувчи, 1995. -Б.49

²⁸Хожиев А.Кўрсатилган асар. -Б.148

²⁹Неъматов X., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. -Тошкент: Ўқитувчи, 1995. -Б.38-42

li]=(ot anglatgan narsaga egalikni ifodalovchi sifatlar]; 3) [aniq ot, sifat]+[lik]=(aniq ot yoki sifatdan hosil qilingan mavhum ot]; 4) [[joy nomi, oykonim]+[lik]=(muyayan joyda yashovchi, shu joyning tub vakili bo‘lgan shaxs];”³⁰

Qo‘llanmada so‘z yasalish qolipining quyidagi uch qismi ko‘rsatib o‘tiladi: 1) so‘z yasashga asos bo‘lubchi lug‘aviy morfema-leksema; 2) leksemaning ma’nosini o‘zgartiruvchi qo‘s Shimcha-yasovchi qo‘s Shimcha; 3) birikish hosilasining tabiat, mohiyati.

Umuman olganda so‘z yasalishi haqidagi qarashlarda ba’zi o‘rinlarda fikrlar xilma-xilligiga duch kelish mumkin.

1.3.So‘z yasalishi predmetga oid kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil sifatida

Bugungi kunda ta’lim sohasida “kompetensiya” tushunchasi keng qo‘llanilmoqda. Kelib chiqishiga ko‘ra inglizcha bo‘lgan bu so‘z dastlab rus tiliga o‘zlashgan, keyinchalik o‘zbek tilida ham qo‘llanila boshlandi. “Competence” so‘zi “to compete” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, *musobaqalashmoq, raqobatlashmoq, bellashmoq* degan ma’nolarni bildiradi. Ta’lim jarayonida kompetentlik tushunchasining shu kunga qadar o‘qitish amaliyotida uchraydigan nazariy bilim bilan undan amaliyotda foydalanish o‘rtasidan izlash, ya’ni o‘quvchi nazariy bilimga eg bo‘gani holda, undan muammoli vaziyatlarda foydalanish holatlarini bartaraf qiladi.³¹ Bu so‘z ta’lim sohasida yangi davlat ta’lim standartlari qabul qilinganiga qadar rasmiy-idoraviy sohalarda funksional vazifalar doirasini ifodalash maqsadida qo‘llanilib kelingan. Odatda, “kompetent mutaxassis” deganda o‘z sohasini yaxshi bilgan, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan xodim tushuniladi. Bu kontekstda kompetensiya tushunchasiga har bir mutaxassis javob bera olishi kerak bo‘lgan kasbiy tayyorgarlik talabi ham yuklatilgan.

³⁰Невматов X., Расулов Р.Ко‘rsatilgan asar.- B.39

³¹Ziyodullayeva G. Ona tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuv masalalari./Ўзбек тили ва уни ўқитиши масалалари. Республика илмий-назарий конференцияси. -Тошкент: 2017. –Б.249

Vazirlar Mahkamasining 2017-yilning 10-aprelida qabul qilingan 187-sonli qarorida ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish masalasi o‘z ifodasini topgan. Unda “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq, umumta’lim fanlarini o‘qitishining uzluksizligi va izchilligi ta’minalash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiyo‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etishni tashkil qilish zarurligi qayd etiladi. Shuningdek, 2017-2018- o‘quv yilidan boshlab kompetensiyaviy yondashuvning bosqichma-bosqich tatbiq etilishi lozimligi uqtiriladi.

O‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish Davlat ta’lim standartida ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi sifatida belgilab berilgan. O‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiradigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish; ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish kabilar kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartining asosiy vazifalari qilib belgilangan.³²

Davlat ta’lim standarti talablarida belgilab berilgan bu maqsad va vazafalar har bir oliy ta’lim dargohlarida o‘zbek tili o‘qitish metodikasi sohasida faoliyat yuritayotgan va yoshlarga ta’lim berayotgan har bir professor-o‘qituvchilari zimmasiga bir qator mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi: avvalombor, ularning

³²Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг Қарори // Умумий ўрта ва ўрта маҳсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш түғрисида. 2017 йил, 10 апрель. 14(774)-сон, 230-модда. Ўзбекистон Республикаси Қонунлар тўплами.

o‘zlaridan bu hujjat mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishlari; talabalarga, birinchi navbatda, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ushbu DTSning maqsadi va vazifalarini chuqur va atroflicha tahlil qilib bera olishlari; umumiyl o‘rtalim tizimida umumta’lim fanlarini o‘rganish bosqichlarining qay tarzda amalga oshirilishi va ularning o‘zaro bir-biridan farqli jihatlarini, ya’ni boshlang‘ich, tayanch va umumiyl darajalarning farqlarini ochib berishi; unda berilgan tayanch va fanga oid kompetensiyalar haqida juda mukammal tushuntirib berishi talab qilinadi.

33

Eng birinchi navbatda, talabalarning ushbu kompetensiyaga yo‘naltirilgan davlat ta’lim standartida o‘z ifodasini topgan kompetensiyalar haqida aniq va mukammal bilim olishi ta’milnangmog‘i kerak. Dasturda tayanch kompetensiya sifatida *kommunikativ kompetensiya* (ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslanuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirish), *axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi* (mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana ularning xavfsizligini ta’milashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirish), *o‘zinio ‘zi rivojlantirish kompetensiyasi* (doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallash), *ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi* (jamiatda bo‘layotgan voqeal, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirish), *milliyva umummadaniy kompetensiya* (vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy

³³Yusupova T.Ona tili ta’limiga kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi masalalari//Ўзбекистон: тил ва маданият. 3-серия. Ўзбек тили таълими.-Тошкент,2017.-Б.71

va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'gom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirish), *matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi* (aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdarligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirish) turlari berilgan. Fanga oid kompetensiyalar, ya'ni nutqiy (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish) va lingvistik (fonetika, grafika, orfoepiya, orfigrafiya, leksika, grammatika va uslubiyatga doir) kompetensiyalar haqida mufassal ma'lumotlar berilgan, ularning mazmuni aniq yoritilgan.

“Ularning tahlili o'zbek tilini o'qitish metodikasi fani yuzasidan o'tiladigan ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida muntazam amalga oshirilishi lozim. Chunki til sathlarining o'qitilishi yuzasidan o'tiladigan har bir mavzuning mazmun-mohiyati o'quvchilarda hosil qilinadigan bilim, ko'nikma va malakalarining shakllantirilishigagina qaratilmasligi kerak. Balki kompetensiyasini, ya'ni mavjud bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik faoliyatda qo'llay olishga qaratilgan qobiliyatini ham shakllantirish va rivojlantirishni masalasi ham nazarda tutilishi darkor. Chunki nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish lingvistik kompetensiyalar yordamida amalga oshiriladi. Ularning tahlili o'zbek tilini o'qitish metodikasi fani yuzasidan o'tiladigan ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida muntazam amalga oshirilishi lozim. Chunki til sathlarining o'qitilishi yuzasidan o'tiladigan har bir mavzuning mazmun-mohiyati o'quvchilarda hosil qilinadigan bilim, ko'nikma va malakalarining shakllantirilishigagina qaratilmasligi kerak. Balki kompetensiyasini, ya'ni mavjud bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik faoliyatda qo'llay olishga qaratilgan qobiliyatini ham shakllantirish va rivojlantirishni masalasi ham nazarda tutilishi darkor. Chunki

nutqiy kompetensiyalarni shakllanrirish lingvistik kompetensiyalar yordamida amalga oshiriladi”³⁴

Maktabda so‘z yasalishi bo‘limining o‘rganilishi, eng avvalo o‘quvchilar so‘z boyligini oshirishga, so‘zlarning paydo bo‘lishi, tilning ichki imkoniyatlari asosida tilning lug‘at boyligining oshishi haqidagi ma’lumotlarni hosil qiladi. 6-sinfda 106-darsda so‘z yasovchi qo‘srimchalar mavzusini o‘tish jarayonida o‘quvchilardan yangi yasalgan so‘zlar, ularning hosil bo‘lishi, yangi so‘zlarning hosil bo‘lishini tushuntirishda o‘quvchilarni kundalik hayotdan misollar olishga o‘rgatish mumkin. Bunda tilimizga nisbatan yangi kirib kelgan so‘zlarga yasovchi qo‘srimchalar qo‘shib qanday so‘zlar yasash mumkinligini so‘rash orqali ularni mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish mumkin. O‘quvchilarga so‘z yasalish qoliplarini berish, unga asosan o‘zları yangi so‘z hosil qilish, aniqrog‘i tilda shu qolipda yasalgan so‘zlarga misol keltirish topshirig‘ini berish mumkin.

Hozirgi o‘zbek tilida so‘z yaslishining mahsuldor usuli qo‘srimchalar qo‘sish yo‘li bilan so‘z yasash – affiksatsiyadir. Bu usul tilda mavjud bo‘lgan muayyan so‘z yasash qoliplari asosida yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham so‘zlovchi xotirasida so‘z yasash qoliplari mavjud bo‘ladi. Masalan, ot+chi “shaxs oti yasovchi” (*ishchi, temirchi, suvchi*); ot+li “belgining mavjudligi yoki ortiqligi” (*suvli, mevali*) va boshqalar.³⁵

O‘quvchilarga 6-sinfda ham, akademik litseyning birinchi bosqichida ham shu qoliplarni berish hamda ularga mos so‘zlar topish topshirig‘ini berish mumkin.

O‘quvchilarning 6-sinfda so‘z yasalishi haqida olgan bilimlari akademik litseyning 1-bosqichida mustahkamlanadi. Akademik litsey darsligida berilgan nazariy ma’lumotlar ham, topshiriq va mashqlar ham ularning yoshi, bilim darajasini hisobga olgan holda tuzilgan. Akademik litseyda o‘tiladigan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan beriladigann ma’lumotlar oliy ta’limda bakalavrлarga beriladigan nazariy ma’lumotlarga ancha yaqin. Darslikda berilgan 199-mashqning sharti

³⁴Yusupova T.Ona tili ta’limiga kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi masalalari//Ўзбекистон: тил ва маданият. 3-серия. Ўзбек тили таълими.-Тошкент,2017.-Б.71

³⁵Hozirgi o‘zbek adabiy tili/ Mahmudov N., Nurmonov A va b.Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik.-Toshkent:Ilm ziyo, 2015.-B.140

quyidagicha:hikmatli gaplarni o‘qing, so‘zlardagi yasalish hodisalarini aniqlab, ularni izohlang.

Andishali odam yaxshilik doyasidir.

Hayo bilan andisha-qo ‘sh ziynat.

Andisha –yaxshilik yo ‘liga poyandoz.

Andisha-kelajak yo ‘llarini munavvar etuvchi mash’ala.

Hayosiz o ‘zining uyalmasligi bilan do ‘stini uyaltiradi.

Andishali odam iffatli bo ‘ladi.

Andishali muloqot-ulig ‘lik belgisi.

Odamning hayo va andishasi uning ko ‘rkidir.

Vafo yo ‘q yerda hayo yashamaydi.Uyalish-insoniylikdan.

O ‘rinsiz uyalib, maqsadni ro ‘yobga chiqara olmaslik-noshudlikdir.

Uyat boshni yerga egadi.

Andishasizlikning hosili-jiholat.

Keltirilgan hikmatli gaplarda e’tibor berilsa, bir asosdan hosil qilingan so‘zlar ko‘p. Tahlil jarayonida shu jihatlarga e’tibor qaratish, uning ma’nosini izohlashni ham talab qilish mumkin.

So‘z yasalishi mavzusini o‘tishda o‘quvchilarning adabiyot fanidan olgan bilimlarini ham mustahkamlash, fanlararo bog‘liqlik asosida mavzuni tushuntirish mumkin. Bunda adabiyotdan o‘qilayotgan badiiy asardan misol topish, ularni tahlil qilish, ishlatilishi darajasi kamroq bo‘lgan so‘zlarning izohini yozish kabi qo’shimcha topshiriqlarni ham berish mumkin bo‘ladi.

II BOB. SO‘ZYASALISHINIO‘QITISHMETODIKASI

2.1.So‘z yasalishini o‘qitishda o‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish usullari

Bugun insoniyatning tafakkur dunyosi, turmush tarzi butunlay o‘zgarib ketdi. Ilm-fan, texnika yangiliklari kirib bormagan soha qolgani yo‘q. SHunga mos ravishda ta’limtizimida ham tub islohotlar amalgga oshirilmoqda.

Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stirishga, mustaqil fikrlashga o‘rgatishga, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga, ya’ni kompetentsiyaviy ta’limga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

Professor N.Mahmudov «Grammatika grammatika uchun emas, balki grammatika nutqning aniq va lo‘nda ifodasi uchun hizmat qilmog‘i lozim.» deb uqtirgan edi. Shuning uchun ham darslikda berilgan mashqlarni ham ijodiy bajartirish maqsadga muvofiqdir.

Avvalo mashq atamasiga e’tibor qarataylik. 1. “Mashq”o‘rganish, malaka hosil qilish uchun qilinadigan ish, tayyorgarlik mashhg‘uloti. 2. Malaka oshirish mashhg‘ulotlar uchun belgilangan vazifa, deb ko‘rsatiladi «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da. Bizningcha, u o‘qitishning bir usuli, ta’limning mazmuni hisoblanadi.

Talabalarning tafakkur faoliyatini rivojlantiruvchi, mustaqil ishlatishga o‘rgatuvchi didaktik vositalardan bir—darslikdagi mashqlar bo‘lib hisoblanadi. Biz qanday ta’lim berganimizning natijasi ana shu amaliy ko‘nikma orqali o‘lchanadi. Mashq bajarish katta amaliy ahamiyatga ega, chunki bu jarayonda talabalar mashq talabiga javob berish uchun o‘z bilimlarini xotirada tiklaydi, mustaqil fikr yuritadi, ijodiy izlanadi, o‘qituvchi ko‘rsatmalarini va yo‘l-yo‘rqlari asosida mashqda berilgan namunaga qarab faoliyat ko‘rsatadi.

Talabalarning tafakkurini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida berilgan mashqlar ham grammatik, ham ijodiy xarakterdaligi bilan ularning qiziqishini oshiradi, bilishdagi faoliyatini rivojlantiradi. Jumladan, darslikning (II-bosqich) 205-sahifasidagi 256-mashqni bajarish davomida bilim oluvchilar ham grammatik topshiriq bajaradi, ham ijodiy fikrlaydi.

U quyidagicha shart bilan berilgan: II bosqich:

Sifat yasovchi qo'shimchalardagi antonimlik munosabatini, shuningdek, ularning ma'nodoshini ham ayting. O'quv xonasidagi birinchi qator insondagi ijobjiy fazilatlarni (rostgo'y, kuyunchak), ikkinchi qator so'zlarning qarama-qarshi ma'nolari—salbiy fazilatlarini (yalqov, yolg'onchi) topadilar.

Har bir mashq o'quvchini mustaqil fikr yuritishga o'rgatar ekan, u o'z qarashi, munosabatiga ega bo'lib boradi. Ona tilida berilgan mashqlar orqali talaba o'z dunyoqarashiga, o'zini-o'zi tarbiyalash ko'nikmasiga ega bo'ladi. O'qituvchilarimiz shuni unutmasligi kerakki, darslikdan foydalanishda talabani o'z holiga qo'ymaslik kerak. Bunda albatta ustozda yo'naltirish qobiliyatি bo'lishi, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi hukmron bo'lishi kerak.

Darslikdagi mashqlarni bir qancha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Mustaqilfikrlashgaasoslangan.
2. Grammatiko'yin —topshiriqli.
3. Ma'naviy-ma'rifiybilimberadigan.
4. Mantiqiyfikrlashgaasoslangan

Shuningdek, darslikda his-tuyg'u uyg'otadigan, tasavvur, fantaziya hosil qiladigan, milliy qadriyatlarni o'rgatuvchi bir talay mashqlar ham berilgan. Yuqoridagilarni bajartirish uchun esa o'qituvchilardan ona tili o'qitishning xilmoxus usul va vositalarini izlab topishlari, tinimsiz izlanishlari, xullas, talabalarda ishtiyoq uyg'otishlari talab etiladi.

Kompetentsiyaviy ta'limda matn yaratish masalasi birinchi o'rinda turadi, chunki "matn yaratishga yo'naltirilgan ona tili ta'limi o'quvchi ongida so'z boyligini oshirish, qiyoslash, analiz va sintez qilish asosida mustaqil fikrlash, so'z tanlash va fikr bildirish ehtiyojini hosil qilishga yordam bermoqda".³⁶

Matn (*arabcha* – yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst) **1.** Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. **2.** Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi.³⁷ Amaliy jihatdan olib qaraganimizda, matnning

³⁶Зиёдова Т. Матн яратиш технологияси. – Тошкент: Фан, 2008. –Б.15

³⁷Ўзбек тилининг изохли лугати (II жилд). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006. –Б.557 .

ma’no qirralari bu bilan chegaralanib qolmaydi. Matn va uni yaratish masalasi o‘ta murakkab hodisa bo‘lib, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi ijtimoiy hamda ruhiy-psixologik munosabatlarning g‘oyatda chigal va ayni paytda samarali usullaridan biri sanaladi. Matn yo‘nalishiga ko‘ra tasnify, ma’rifiy, ilmiy, publitsistik, badiiy va hokazo turlarga bo‘linib ketadi. Ona tili ta’limida matn qaysi yo‘nalishda bo‘lishidan qat’i nazar, bitta maqsadga, ya’ni o‘quvchining tafakkurini o‘stirishga xizmat qiladi.

Ona tili darslarining har birida matndan unumli foydalanish mumkin. Buning oldindan tayyorlangan, yodlangan, birorta asardan olingan, dialog yoki savollar yordamida tuzilgan ijodiy matnlardan foydalanish mumkin. Bular ichidan eng ta’sirchani, o‘quvchini mustaqil fikrlashga yetaklaydigani, uning kamolotini belgilaydigani bu – ijodiy matn sanaladi.

Ijodiylik o‘quvchining dunyoqarashini, bilim va malakasini yuzaga chiqarish vositasidir. O‘quvchining fikrlash dunyosi, so‘z boyligi, qiyoslash va taqqoslash qobiliyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, u tuzgan matn ham shunchalik to‘laqonli va mukammal bo‘ladi. So‘z boyligi kam, badiiy asarlar o‘qimagan, hayotiy tajribaga ega bo‘lmagan, fikrlashi tor o‘quvchilar tuzgan matn uzuq-yuluq, tushunarsiz chiqadi.

So‘z yasalishi mavzusini o‘tish jarayonida o‘quvchilarga yasama so‘zlar qatnashtirib matn tuzdirish yoki matndagi yasama so‘zlarni topib tahlil qildirish muhim ahamiyatga ega.

Ona tili darslarining samaradorligi o‘quvchilarning ijodkorligiga, faolligiga har taraflama bog‘liqdir.

Ijodiy matn uchun quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

- mavzu aniqlanadi;
- unga sarlavha topiladi;
- matn uchun reja tuziladi;
- matnning uzviy qismlari belgilanadi;

- matnda ishlatiladigan so‘zlar tanlanadi;
- qismlarning bog‘lanishiga diqqat qaratiladi;
- asosiy g‘oyani ifodalashga harakat qilinadi;
- xulosalar chiqariladi;
- matnning hayot bilan bog‘lanishiga e’tibor qilinadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, har bir darsda uchta maqsad bo‘ladi:

- a) ilmiy maqsad;
- b) tarbiyaviy masad;
- v) rivojlantiruvchi maqsad. ³⁸

Masalan, 6-sinfda 103-darsda “Shaxs oti yasovchi qo‘srimchalar va ularning imlosi” mavzusini o‘tishda dastlab shaxs oti yasovchi qo‘srimchalar haqida ma’lumot beriladi. Shaxs otlarining bir guruhi asosga –chi, -soz, -kor, -xon, -dosh, -boz (-voz), -vchi, -lik qo‘srimchalarini qo‘sish yordamida yasaladi. –vchi qo‘srimchasi i unliyi bilan tugagan fe’llarga qo‘silganda i unslisi u shaklida, a bilan tugagan fe’llarga qo‘silganda o shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Undosh bilan tugagan fe’llarga –uvchi shaklida qo‘siladi: quruvchi, suzuvchi.

Darslikda eslatma sifatida quyidagi qoida keltirilgan: “-lik qoshimchasi o‘rning joy bildiruvchi turdosh va atoqli otlarga qo‘silib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi. Atoqli otlarga qo‘silgan –lik qo‘srimchasi atoqli otni turdosh otga aylantiradi va kichik harf bilan yoziladi”³⁹

Shaxs oti yasalishi va uning imlosi tushuntirilgandan so‘ng mavzuga oid quyidagicha matn tuzish mumkin:

Biz kecha sinfdoshlarimiz bilan yozuvchilar uyushmasiga bordik. U yerda kitobxonlar uchun yangi asar taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Yozuvchilar o‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish to‘g‘risidagi fikr-mulohazalrini tingladik. Biz yozuvchilarning yangi asar yozish jarayonidagi mashaqqatlar, o‘ziga xos jihatlar haqida bilib oldik. Yozuvchilik hammaga ham nasib etmaydigan kasbdir. Yozuvchilikni zargarlikka o‘xshatish mumkin. Zargar tillaga ko‘z nurini

³⁸Джурабоева З.Компетенциявий таълимда матн яратиш муаммолари. //Ўзбекистон: тил ва маданият. 3-серия. Ўзбек тили таълими.-Тошкент,2017.-Б.79

³⁹Ona tili.6-sinf uchun darslik.-B.116

to ‘kib undan chiroyli buyumlar yasagani kabi, yozuvchilar so‘z vositasida tillaga teng asarlar yaratadilar.

Matn tuzishda o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilmog‘i kerak. Bunday mashg‘ulotlarda matn tuzish badiiy tasvir san’atining xilma-xil qirralari (so‘z va so‘z shaklini kerakli ma’noda tanlay bilish va bu borada xatolarga yo‘l qo‘ymaslik; ba’zan so‘z va so‘z shakllarini qo‘llashdagi noo‘rin takrordan qutulish; tasvir uchun eng maqbulini tanlash; inson, tabiat hamda voqeа-hodisalardagi go‘zalliklarni yetkaza bilish va hokazolar) bilan tanishish asnosida amalga oshadi.

2.2.So‘z yasalishi usullarini o‘qitishda adabiy manbalardan foydalanish

Bugungi kunda til o‘qitish metodikasida yangi yo‘nalish yuzaga keldi: badiiy matnlar asosida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash, ona tili va adabiyot darslarida olingan bilimlarga integratsiyalash asosida tayangan holda o‘quvchilarni so‘z ishlatish mahorati bilan tanishtirish, shu orqali ularning nutq madaniyatini rivojlantirish, bunda ijodiy topshiriqlarga ustuvor ahamiyat berish zaruriyati tug‘ildi.

Ushbu yo‘nalishdagi ishlarni amalga oshirish, ya’ni badiiy qiymat yaratuvchi til hodisalari ustidagi ishlarni tashkil etishdan avval o‘qituvchi “Ona tili” darsliklarini o‘rganib chiqib, ulardagi har bir badiiy matnda qanday badiiy tasvir vositasi ishlatilganini aniqlab olmog‘i, boshlang‘ich sinflar “O‘qish kitobi” darsliklaridagi savol va topshiriqlardan boxabar bo‘lmog‘i, 5–9-sinflar “Ona tili” dasturi talablariga va darslik materiallariga ijodiy yondashgan, “Adabiyot” darsligi va darslik-majmualari materiallarini yaxshi bilgan, ikki o‘quv fanini integratsiyalashni o‘ylagan hamda uzviylik va uzlusizlik tamoyiliga amal qilgan holda ish boshlamog‘i darkor.

Istiqlol davrida ona tili darslarida ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli so‘zlar, so‘zlarning ko‘chma ma’nolari, uyadosh so‘zlar ustida ishslash, shu so‘zlar asosida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish muammolari T.Ziyodovaning tadqiqot

ishida, metodik qo'llanmasida⁴⁰ yoritildi. Ma'nodosh so'zlar asosida o'quvchilarning nutqini o'stirish masalalari N.Yo'ldoshevaning tadqiqot ishida ko'tarildi⁴¹. N.Qosimovaning tadqiqot ishi matniy ma'nodoshlarga bag'ishlandi.⁴² T.Yusupovaning tadqiqot ishi va metodik qo'llanmasida gapning bosh bo'laklarini o'rganish jarayonida nutq o'stirish, nutq madaniyatini rivojlantirishda so'z shakllari va grammatik vositalarning o'rni masalasiga e'tibor qaratildi⁴³. A.Ergashevaning metodik qo'llanmasida o'quvchilarni mazmundor va ta'sirchan gap tuzishga o'rgatish, bunda tilning emotsional-ekspressiv vositalaridan foydalanish mazmuni va usullari diqqat markaziga qo'yildi⁴⁴. Lekin bu ishlar darsliklardagi badiiy matnlarning til xususiyatlarini o'rganish bilan bog'lanmadidi. Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini integratsiyalash asosida o'qitish metodikasi tadqiqotchi K.Mavlonova tomonidan ishlab chiqildi. K.Mavlonova monografiyasida ona tili ta'limida nutq o'stirishda ona tili va adabiyotining ichki hamda tashqi integratsiyalash imkoniyatlari, badiiy matn tahlilini ona tilidan o'tiladigan mavzular doirasida nutqning ekspressivligi bilan integratsiyalashning bugungi holati, badiiy matnlar asosida ona tili va adabiyot darslarini o'zaro integratsiyalab o'rganishning lingvodidaktik asoslari kabi qator masalalarga oydinlik kiritgan.⁴⁵

O'quvchi nutqining to'g'riliqi adabiy til me'yorlari aks etgan grammatik materiallarni o'rganish jarayonida shakllanib borsa, nutq boyligi esa yangidan-yangi so'zlar, so'z shakllari va sintaktik qurilmalar qatori tilning emotsional-ekspressiv vositalarini o'zlashtirish jarayonida hosil bo'ladi. Darhaqiqat, nutqning boy bo'lishi "Ona tili o'qitish metodikasi"da ta'kidlanganidek: "...o'zbek xalqining qochiriq

⁴⁰Зиёдова Т. Она тили таълими жараённида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш: Пед.фан.ном. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 141 б.;

⁴¹Йўлдошева Н. Умумий ўрта таълим мактабларида синонимларни янги педагогик технология асосида ўқитиш: Пед.фан.ном. ... дисс. автореферати. – Тошкент, 2002. – 24 б.;

⁴²Қосимова Н. Она тили таълими жараённида ўқувчилар нутқини сўзнинг маънодошлари билан бойитиш: Пед.фан.ном. ... дисс. автореферати. – Тошкент, 1998. – 23 б.

⁴³Юсупова Т. Гапнинг бош бўлакларини ўрганиш жараённида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг лингвометодик асослари: Пед. фан.ном. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 157 б.; Юсупова Т. Гапнинг бош бўлакларини ўрганиш жараённида ўқувчилар нутқини ўстириш. – Тошкент, 2006. – 87 б.

⁴⁴Эргашева А. Она тили дарсларида назарий маълумотларни мустаҳкамлаш жараённида нутқ ўстириш методикаси.–Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2010. – Б. 69 .

⁴⁵Мавлонова К.Она тили дарсларида бадиий матннинг тил хусусиятларини интеграциялаш асосида ўрганиш методикаси. –Тошкент:Mashhur press, 2016.

so‘zлari va ko‘chma ma’noli so‘zлaridan, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, mubolag‘a kabi badiiy til vositalaridan, ritorik so‘roqli gaplardan foydalanishida namoyon bo‘ladi. Tilning bu tasviriy vositalari nutqqa go‘zallik, joziba va rang-baranglik baxsh etadi”⁴⁶. Bu borada amaldagi “Ona tili” darsliklarida mashq materiallari sifatida keltirilgan badiiy matnlarning ahamiyati va xizmati o‘ziga xos.

So‘z yasalishi mavzusini o‘tishda o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Xalq og‘zaki ijodining maxsus turi asosida topshiriqlar berish orqali. Masalan, o‘quvchilarga biror maqol, matal, naql, hikmatli so‘z kabilarning boshlanish qismini berish va uni davom ettirish mashqlari asosidagi topshiriqlar: Quyiagi maqollarni davom ettiring, ular tarkibidagi yasama so‘zlarni topoib, namunadagidek tahlil qiling:

Mehnatdan kelsa boylik, ...,

O‘roqda yo‘q, mashoqda yo‘q...

Aqli o‘zini ayblar,....

Aqlliga aytdim, angladi-bildi,

Aqlsizga aytdim....

Behunarning hunari-...

Bilimliga dunyo yorug:,

Bilimsizga...

Mevali daraxt, yerga engashar...

Avaylab so‘zla so‘zingni,

Devorning...

6-sinf adabiyot darsligida Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasiadn parcha berilgan. Qissada yasama so‘zlar kop bo‘lib, mazkur parchadan o‘quvchilarga yasama so‘zlarni toppish, ularnin qaysi so‘z turkumiga oidligini aniqlash topshirig‘ini berish mumkin.

...Bo‘ri polvonsiz davralar fayzsiz bo‘lib qoldi.

Bo‘ri polvon o‘rni juda-juda bilindi.

⁴⁶G‘ulomov A. v.b. Ona tili o‘qitish metodikasi:–T.: Fan va texnologiya, 2012. –B.310-311

El Bo‘ri polvon kurashini qo‘msadi...

Bo‘ri polvon-da davralarga intiq bo‘lib qaradi. Bo‘ri polvon o‘zini izladi!

Yo‘q, Bo‘ri polvon yo‘q! Aksiga olib ayoli topgani-da qiz bo‘ldi!

To‘rtinchi farzand ko‘rdi-tag‘in qiz bo‘ldi!

Yaratganning o‘zidan davralarni gursillatib-gursillatib olishadigan o‘g‘il tiladi.

Hartugul, beshinchi farzandi o‘g‘il bo‘ldi!

Tilab-tilab topganim deya, otini Tilovberdi qo‘ydi!

Bo‘ri polvon endi orzu bilan ovundi:o‘g‘li Tilovberdi balog‘atga yetayapti-o‘rnini toy bosadi...

Yolg‘izo‘gil Tilovberdi tez yetildi. Uni kuyov qiladiganlar ko‘paydi. Ayrimlar tilga borib aytdi.

2.3. So‘z yasalishini o‘qitishda noan’anaviy usullardan foydalanish texnologiyasi

Umumuy o‘rta ta’lim tizimida ona tilio‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish davrning asosiy talabi, hayotning zaruriyati bo‘lib qolmoqda. Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda “innovation” – “yangilik kiritish”⁴⁷ degan ma’noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida “innovatsiya” tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

Mavjud adabiyotlarda innovatsiyalarning ko‘rinishlari sifatida yangi g‘oyalar;tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar;noan’anaviy yondashuvlar;odatiy bo‘lmagan tashabbuslar; ilg‘or ish uslublari keltiriladi.⁴⁸ So‘z yasalishi haqidagi qarashlarda yangicha fikrlari bilan avvaldan mavjud qarashlarni, xususan, ravish yasalishi haqidagi fikrlarni ilgari

⁴⁷Ҳасанбоев Ж., Тўракулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О., Усманов Н. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Тошкент: Фан ва технология. 2009. – Б.154.

⁴⁸Сайидаҳмедов Н. Ноанъанавий дарс. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003. – Б.56.

surgan A.Hojiyevning nazariy qarashlarini ham innovatsiya sifatida qabul qilish mumkin. A.Hojiyevning yuqorida tilga olingan asarida ravish yasalishini inkor etadi. So‘z yasalishi haqidagi qarashlarni tahlil qilar ekan, tilshunos olim so‘z yasalishiga mazkur adabiyotda keltirilgan talablar asosida yondashilsa, ravish so‘z turkumida yasalish hodisasi yo‘qligini ta’kidlaydai hamda bu mavzuda e’lon qlingan maxsus maqolani tilga oladi.⁴⁹ Tilshunos olim mavjud adabiyotlarda ravish yasalishi, xususan, -cha affiksi bilan yasalgan ravishlar haqidagi qarashlarni tahlil qilar ekan, quyidagicha xulosaga keladi: “...o‘xhstish, o‘xshashlikni ifodalash so‘z yasovchilarga xos xususiyat emas, so‘z yasovchi yangi lug‘aviy ma’noli til birligi – yasama so‘z hosil qiladi. Qolaversa, birinchidan, *hozircha*, *yigitcha*, *bolacha*, *atroflicha*...so‘zlari ‘so‘z yasalish asosi+so‘z yasovchi’dan iborat tarkibli birlik-yasama so‘z emas, ikkinchidan, *shoshganicha*, *bizningcha*, *o‘zimcha*, *bilganimcha* so‘zlaridagi –cha so‘z shakliga qo‘shilayapti. So‘z yasovchi birlik esa bunday xususiyatga ega emas. Uchinchidan, *ukrayincha*, *bolacha*, *ilgaricha* yasama so‘z-lug‘aviy birlik emas, shuning uchun izohli lug‘atlarda bosh so‘z(izohlanuvchi so‘z) sifatida berilmaydi va hokazo. Xullas, o‘zbek tilidagi –cha affiksi so‘z yasovchiga xos xususiyatlarga ega emas. U o‘z mohiyatiga ko‘ra shakl yasovchi morfemalarga, shuningdek, ko‘makchilarga o‘xshaydi”⁵⁰

“Ta’lim innovatsiyalari ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar sanaladi. Ta’lim innovatsiyalari “innovatsion ta’lim” deb ham nomlanib, bu tushuncha birinchi bor 1979-yilda “Rim klub”da qo‘llanilgan. Ta’lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi:

1. Faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra: pedagogik jarayonda yoki ta’lim tizimini boshqarishda qo‘llaniladigan innovatsiyalar.

⁴⁹Хожиев А.Ўзбек тилида равиш ясалиши тизими масаласига доир./Ўзбек тили ва адабиёти, 2001.2-сон.-Б.42-46

⁵⁰Хожиев А.Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. -Тошкент: Фан, 2010.–Б.174-175

2. Kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.

3. O‘zgarishlarning ko‘lamiga ko‘ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.

4. Kelib chiqish manbaiga ko‘ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o‘zlashtirilgan innovatsiyalar.

Ta’lim tizimida yoki o‘quv faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llashda sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko‘zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur⁵¹.

Ma’lumki, fikr ifodalash vositasi til birliklari hisoblanadi. Til birliklari esa fonema, morfema, leksemahisoblanib, ular ham tafakkur o‘stirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, nutq birliklari ham izchil tizim bo‘lib, ular tovush, so‘z, gap tarzida namoyon bo‘ladi.

Professor A.Nurmonov gap butunlik sifatida gap bo‘laklariga, gap bo‘laklari so‘z shakllariga, so‘z shakllari morf (allomorf) larga, morflar esa fonlarga, (allo) fon esa akustik va fiziologik xossalarga bo‘linishini ta’kidlagan holda, butun o‘zaro dialektik aloqadorlikda bo‘lgan qismlar, bo‘laklarning uzviy birligidan iborat yaxlitlikdir, deydi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘qitishda tilning ichki bo‘linishlarini o‘rgatish, grammatik hodisalarini anglash mushohada qilish uchun zarurdir.

Akademik listey o‘quvchilariga har qanday mavzuni tushuntirishda hodisaning mohiyatini anglatish, ya’ni ularni bo‘laklarga ajratish, bo‘lakni butunga aylantirish, “tahlil, sintez, kuzatish, taqqoslash, qismlarga ajratish, umumlashtirish”, butunni bo‘laklarga ajratish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyat usullariga o‘rgatish ularning mantiqiy tafakkurini o‘stirishga yordam beradi.

Xususiylikdan umumiylariga, umumiylardan xususiy-liklarga kabi dialektik yo‘nalishni o‘rgatish-ta’lim mazmunining samarador bo‘lishidan dalolatdir. Zeroki, har bir sohada samaradorlikka erishish uchun inson ruhiyatiga, hissiyotiga ta’sir eta

⁵¹Султонова Г.А. Педагогик маҳорат. – Тошкент: ТДПУ, 2005.

olish kerak. O‘quvchilardagi mustaqil fikr, tafakkur, dunyoqarash, e’tiqodni shakllantirish bir qancha omillarga bog‘liq: a) o‘quvchilarda anglash tuyg‘usini rivojlantirish; b) umumiylit va xususiylik, butun hamda qism dialektikasining mohiyatini o‘rgatish; v) motivastiya hosil qilish; g) nazariya bilan amaliyot mutanosibligini ta’minlash.

Bunday omillarni amalga oshirish uchun o‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rishda o‘quvchilarda faollikni ta’minlash yo‘llarini, mavzuni o‘tish modellarini, mashg‘ulot jarayonida foydalanish lozim bo‘lgan vositalarni, dars samarasini beradigan usullarni, motivastiya hosil qiladigan yo‘l-yo‘riqlarni oldindan aniqlab olmog‘i lozim.

O‘quvchilarda tafakkur o‘stirish uchun qismni butunga aylantirishni o‘rgatish maqsadida quyidagi interfaol o‘yinlardan foydalanish mumkin. U “Qismlardan butunlikka” yoki “Oddiydan murakkabga” deb ataladi va quyidagi modul asosida tashkil qilinadi.

Auditoriyadagi o‘quvchilar dastlab ikki guruuhga bo‘linadilar. Har ikki guruuhdan bittadan ishtirokchi chiqib, xohlagan qo‘srimchalardan birini yozadi. Ulardan so‘ng ikkinchi o‘quvchi ana shu qo‘srimchaga mos o‘zak yozadi. Uchinchi o‘quvchi esa hosil bo‘lgan so‘zni birikma holiga keltiradi. To‘rtinchisi mazkur birikmani gapga aylantiradi. Beshinchi o‘quvchi sodda yoyiq gapni kengaytiradi. Navbatdagi o‘quvchi sodda gap asosida qo‘shma gap tuzadi. So‘ngra navbat bilan uni murakkab qo‘shma gapga aylantiradilar. Va, nihoyat, boshqa o‘quvchilar ular asosida matn tuzadilar. Shundan so‘ng ikkala guruuh bir-birlarining tuzgan matnlarini orfografik, tinish belgilari hamda uslubiy jihatdan nazorat qiladilar, tekshiradilar. U quyidagicha bo‘lishi mumkin:

-don

-guldon

-guldonning naqshi

-guldonning naqshi chiroyli ekan.

-stol ustida ko‘rk bag‘ishlab turgan guldonning naqshi kishini o‘ziga maftun etadi.

Ta’lim bosqichlarida so‘z yasalishi mavzusini o‘qitishda o‘quv chilarning yozma nutqini rivojlantirish usullariga quyidagilarni qo‘sishimcha qilish mumkin:

«**Asosdosh so‘zlar yasang**» o‘yini orqali. Bunda o‘quvchiga bir asos beriladi va uni davom ettirish vazifasi topshiriladi. Masalan, ter – *terim* – *terimchi* – *terimchilik* – *guliston* – ...; *bog‘ – bog‘bon – bog‘cha* kabi.

Sir emaski, ona tilini o‘qitish va o‘rgatishning barkamol avlod tarbiyasidagi o‘rnii beqiyos. Biroq o‘z tilida savodli yozib, erkin fi krlay olish, uning har bir unsurini ongli ravishda idrok etib, jozibasini to‘la his qilish ko‘nikmasini o‘stirish, nutq madaniyatini to‘laqonli shakl lantirishda “Morfologiya” bo‘limi uchun ajratilgan har bir soatdan samarali foydalanish ham maqsadga muvofi qdir. Shu bois ushbu bo‘limdagi mavzularning o‘quvchilar tomonidan qiziqib, mukammal va ijodiy o‘zlashtirilishida o‘qituvchi shaxsan ahamiyat berishi lozim bo‘lgan holatlar borki, shular xususida ba’zi mulohazalarini bildirmoqchimiz.

6-sinfda so‘z va so‘z shakllarini o‘rgatishda ona tilidagi u yoki bu so‘zga muqobil bo‘lgan, boshqa tillarga mansub, lekin o‘quvchilarga tanish so‘z va so‘zlar tarkibini chog‘ishtirib berish yoki bir asosdan hosil qilingan so‘z va so‘z shakllarini andozaga solib, tizim sifatida qiyoslab ko‘rsatish o‘rinli. Bunday qiyosiy jadval tavsiya etilgach, ona tilining lug‘aviy boyligini ta’kidlagan holda uning boshqa biror tildan kam emasligi, balki tarkibiy qismlarga ajralishdagi ustuvorligi, ya’ni oson ligi, oddiyligi tushuntirilishi kerak. Shu maqsadda o‘quv chilarni ijodiy fi krlashga tortish uchun bitta asosdan hosil qilingan so‘zlar tizimini tavsiya etish maqsadga mu vofi q. Masalan, “gul” asosidan hosil qilingan so‘z va so‘z shakllarining tarkiblanishini quyidagicha qiyoslash mumkin:

1-slayd

Nº	O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
1	gul	цветок	fl ower
2	gul+chi	цветовод	flower-grower, florist

3	gul+zor	цветник	flower bed
4	gul+don	цветочный горшокваза	flowerpot
5	gul+chilik	цветоводство	flower-growing,
6	gul+iston	цветочный край	florishing city

2-slayd. “Gul” so‘zining yasalish andozalarini ko‘rsatish.

- A. Sodda yasama so‘zlar: *gul+chi, gul+zor, gul+don, gul+chilik, gul+iston, gul+li, gul+gun*.
- B. Qo‘shma yasama so‘zlar: *gul+dasta, gul+bog‘, gul+safsa\safsargul, gul+toji+xo‘roz, gul+g‘uncha, gul+i+beor*.
- C. “Gul” so‘zining shakl yasalish andozalarini qi yos lang:
gul+i / gul+lar+im / gul+lar+ni, gul+ga / gul+ing+lar / gul+im, gul+lar / gul+lar+ing / gul+ingiz

3-slayd. “Gul” tarkibli so‘zlarning mavzuiy guruhlanishi.

- A. Shaxs otlari: a) kasb-kor: *gul+chi; b) kishi otlari – ismlar: Gulchiroy, Gulruxsor,...*
- B. O‘rin-joy otlari: *Guliston, gulzor, Gulobod.*
- V. Narsa-jihoz otlari: *gul+don.*
- G. O‘simlik (gul) nomlari: *gulsafsa, gultojixo‘roz, ...*

Maktab o‘quvchilari uchun tavsiya etilgan lug‘atlardan foydalanib, yuqoridaqgi mavzuiy guruhlarni to‘ldirib kelish uy vazifasi sifatida topshirilishi mumkin. O‘qituvchi darslikda tavsiya etilgan har bir qoida, mashq topshiriqlariga ijodiy yondashishi, o‘rnii kelganda o‘quvchilarning bilim darajasiga moslab topshiriqlarnio‘zgartirishi ham mumkin. Bolaga lug‘aviy ma’nosini tushuntirish qiyin bo‘lgan so‘zlarni, ayniqsa, mavhum tushunchalar nomlarini tavsiya etmagan

ma'qul. Darslikning⁵² 14-darsda quyidagi 48-mashq berilgan: “Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi mos qo‘shimchalarni qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

Mard...(-chi, -lik, -kor) – bu ezgu tuyg‘u muqaddas fazilat, tabarruk meros. Mard bo‘lgan kishilarda (-lar, -cha, -da) haqiqat, qanoat, sabr, ezgulik, vijdon, adolat, diyonat, insof, (be-, ba-, no-)…mardlarda yo‘g‘izlik, yomonlik, ojizlik, makkorlik, hasad,adolat, tubanlik, noinsoflik kabi sifatlar...(-da,-chi,-ni) uchratish mumkin.” Keltirilgan mashqdagi *diyonat, ezgulik, iroda, xuruj, manzur, mulozim* kabi so‘zlarni tushunish o‘quvchilarga biroz qiyinchilik tug‘diradi, natijada ularning fanga qiziqishi susayadi.

Topshiriqni 15-darsning 51-mashqidagi topshiriqqa nisbatan ham qo‘llash mumkin. O‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish uchun ularning yoshiga mos “Gulxan”, “G‘uncha” jurnallari, “Tong yulduzi” gazetasi yoki bolalar adabiyotidan misollar keltirish maqsadga muvofiq.Bunda ham topshiriq bajariladi, ham o‘quvchilarni gazeta, jurmal o‘qishlariga qiziqishlari ortadi.

Tilshunoslikka oid manbalarning birida “So‘zning orfografiyasini bilish uchun uning biografiyasini bilmoq kerak”, degan asosli e’tirof bor. “Morfologiya” bo‘limining asl mohiyati ham so‘zga, uning har bir shakliga diqqatni jalb qilib, o‘quvchini savodli yozishga o‘rgatishdan iborat. Darslikdagi 19-dars mavzusi masalan, 69–70-mashq topshiriqlari shu maqsadga yo‘naltirilgan. Biroq bu matnlardagi *yigit+cha, bog‘+ga, boylik(g)+ing, so‘ylayvering* kabi so‘zlarning yozilishi bilan talaffuzini qiyoslab, chuqurroq tushuntirib berish kerak, chunki ularning tarkibi boshqa so‘zlardan farq qiladi. Xuddi shu kabi holatlarda o‘qituvchining ilmiy salohiyati, o‘quvchida ona tiliga bo‘lgan munosabatni tarbiyalashdagi xizmati sezilishi kerak. Demak, o‘qituvchi darslikda berilgan tayyor materiallardan foydalanibgina qolmay, balki o‘z bilimi bilan ularni to‘ldirishi, o‘quvchini ijodiy fi krlashga o‘rgatish uchun badiiy so‘zlar olamiga yetaklashi ham kerak. Masalan, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan matniy parchalar tavsiya etish,

⁵²Ona tili.6-sinf uchun darslik/Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. – Toshkent:Tasvir, 2012.-B.17-18

ularda ishlatilgan so‘z va so‘z shakllarini aniqlab, shu o‘rindagi qo‘llanishni tushuntirib bera olish lozim. Misollar:

1) *Bekorchiga kerakmas*

Ishlaganga bilinmas.

O‘zi qo‘lsiz-oyoqsiz,

Qarasangiz, ko‘rinmas.

2) *Tikuvchimas,*

Bichuvchimas,

Ignasi ancha ekan

Yoviga sanchar ekan.

3) *Quyon dedi: – Tulporjon,*

Olib keting bedamni

– Oyoq og‘ir quyonjon,

Chorlang biror odamni (Vali Ahmadjon).

O‘quvchining ma’naviyatiga ijobiy ta’sir etuvchi, qadriyatlarimiz aks etgan quyidagi kabi uyadosh so‘zlarqatorini tavsiya etish ham yaxshi samara beradi: a) o‘zbek, o‘zbeklar, o‘zbekcha, o‘zbekchilik, o‘zbegin; O‘zbekxon, O‘zbekoyim, ...; O‘zbekiston, ...;

b) bola, bolam, bolalik, bolajon, bolaparvar, serbola, ko‘p bolali, ...; “Bolajon” telekanali, ...;

c) vatan, vatandosh, vatanparvar, vatangado, vatanfurush, ...; ona-Vatan, Vatanim – onam, ...

Bolalar adabiyotida uchraydigan noodatiy yasalishlarni, o‘xhash so‘z shakllarini, takrorlarni toptirish,

ularning qo‘llanishini tushuntirish ham o‘quvchida so‘z va so‘z tarkibiga qiziqishni uyg‘otadi. Ayrim misollar:

...*Yozda changiston-u qishda*

Balchig ‘iston ko‘chamen.(E.Vohidov)

Gul bo‘lib, gulgul yonib, Gulshan aro

Gulchehralar... (E.Vohidov)

“Gulxumorning gulbog ‘i”.(Vali Ahmadjon)

Demak, o‘quvchilarga so‘z tarkibini yuqoridagi kabi o‘rgatish ularning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga xizmat qiladi.

2. “**So‘zdan so‘z top**” o‘yini orqali.Masalan, *istiqbol* so‘zidan so‘z topish vazifasini berish mumkin. O‘quvchilar quyidagi so‘zlarni topishlari mumkin: *is, iqbol, ol, bol, qol, tol, boq, toq, tob, tos, tiq, qot, qil, siq, sot, bot, bos, bil, olis, olti, iliq, qis, sol* kabilar.

3. “**Zanjir**” o‘yini orqali.Bunda bir o‘quvchi yasama so‘zga misol aytadi, keying o‘quvchi so‘z qaysi tovush bilan tugagan bo‘lsa, shu tovush bilan boshlanganyasama so‘zni aytishi kerak. Bunda o‘quvchilarning topqirligi, tezkorligi inobatga olinadi.Masalan: *archazor– rasmchi –ijodkor –raqsbop– pillachilik –ko ‘ylaklik –kashtachilik –kovushdo* ‘z kabi.

Bu topshiriqda aytilgan so‘zlar yasama ekanligi, hozirgi paytda ham yasalish mavjud ekanligiga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

“So‘z yasalish” mavzusinio‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish samaralidir. Interfaol metod— o‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, bir vaqtida ham o‘qituvchi, ham o‘quvchini faollashtrishga yo‘naltrilgan o‘qitish usullari majmuihisoblanadi. “So‘z yasalish” mavzusini o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash va bundan kutilgan natijalarni olish kerak. Ushbu mavzuni o‘rganishda ”Venn diagrammasi”, ”FSMU” kabilardan foydalanish mumkin.

“So‘z yasalish” mavzusini o‘qitishda grafik organayzerlardan foydalanish samarali usullardan biridir. O‘quv jarayonida so‘z yasalishi, uning usullari, so‘z turkumlarida so‘z yasalishi, so‘z yasalish tarkibi kabi masalalarni yoritishda, o‘quvchilarga ma’lumot berishda anglashlari uchun yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklardan foydalanish ham yuqori natijalarni kafolatlaydi. Agar grafik organayzerlarni o‘qituvchi tayyor (to‘ldirilgan) holda qo‘llasa, vosita vazifasini, o‘quvchilarning mashg‘ulot mavzusiga doir bilimlarni mustahkamlash va fikrlashini rivojlantrish maqsadida ishlatilsa, metod fazifasini bajaradi. Masalan, shunday


grafik organayzerlardan “Qanday”, “Nima uchun”, “BBB” kabi kabilarini misol tariqaida keltirish mumkin.

“Nima uchun” sxemasi - muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri bo‘lib,tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi. O‘quvchilar dastlab “Nima uchun” sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohidakichik gurhlarda muammoni ifodalaydilar. “Nima uchun” so‘rog‘ini beradilar va chizadilar, shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom etadi.

Kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar, o‘zlarining chizmlarini to‘ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar.


“Nima uchun?” chizmasini tuzish qoidalari

1. Aylana yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shakllardan foydalanishni o‘zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko‘rinishini - mulohazalar zanjirinito‘g‘ri chiziqlimi, to‘g‘ri chiziqli emasligini o‘zingiz tanlaysiz.
3. Yo‘nalish ko‘rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo‘lgan yo‘nalishingizni belgilaydi.



Tarmoqlar metodi (klaster)

Fikrlarning tarmoqlanishi bu pedagogik strategiya bo‘lib u talaba-o‘quvchilarni biror-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib talaba-o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravshan ketma-ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi. Bu metod biron mavzuni chuqur o‘rganishdan avval talaba-o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda talaba-o‘quvchilarning shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Tarmoqlar metodi (klaster)dan so‘z yasalishi mavzusini o‘tishda amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin. Masalan, o‘quvchiga so‘z yasalish usullarini tarmoqlar yordamida ko‘rsating deyish mumkin. Bunda talaba so‘z yasalish usullarini ko‘rsatish bilan birga, ularning har biriga misol ham topadi, shu tariqa o‘zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi.



T-chizma. T-chizmamunozaravaqtidaqo‘shaloqjavoblar (ha/yo‘q, taraf dorvaqarshi)

yokitaqqoslashzidjavoblarniyozishuchununiversalgrafikorganayzerhisoblanadi.

Masalan

“So‘zyasalishi”

matnini

“taraf dorvaqarshi”

tamoyiligaasoslanibo‘qilganidanso‘ng, birjufto‘quvchiquyidakeltirilganidek T- chizmanituzishivabeshminutdankeyin, chizmaningchaptomonidaso‘zyasalishihodisasiqandayhodisaekanligihaqidabeshmi nutichidaqanchao‘ylaptopishmumkinbo‘lganshunchasababniyozishimumkin. So‘ngra besh minut mobaynida ular bu fikrga qarshi iloji boricha ko‘p sababni keltirishlari kerak. Ana shu vaqt oxirida ular yana besh minut mobaynida o‘z T-chizmalarini boshqa juftlik chizmalari bilan taqqoslashlari mumkin.

So‘zyasalishiqandayhodisa?

So‘zyasalishinutqiyhodisa.

Unutqdahosilbo‘ladi.

Nutqjarayonidahosilbo‘lganyasalmaniy
anao‘zo‘rnigaqaytaribbo‘lmaydi.

So‘zyasalishiqandayhodisa?

So‘zyasalishitilhodisasi.

Utilningimkoniyatlarisifatidatilninglug‘a
viyboyliginioshiruvchiichkiimkoniyatlar
idanbiridir.

Pedagogik texnologiyalar sohasidagi yangi izlanishlar bilan tanishish, o‘qitishning faol usullarini bilish va qo‘llay olish har bir pedagog oldiga qo‘yayotgan zamon talablarining asosiylaridandir.

III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI

3.1. Mavzu yuzasidan tajriba sinov ishlari natijasi

O‘quvchilarning “Ona tili va adabiyot” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va interfaol usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, kompyuter dasturlari, elektron materiallardan foydalанилди. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday usul o‘quvchilarni tayyor bilimlarni o‘zlari qidirib topishlarini, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlarini, xulosa chiqara olishlarni ta’minlaydi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoityaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat. Pedagogning innovatsion faoliyatida innovatsiya yangilikni qo‘llashga tayyorgarligi, pedagogik yangiliklarni qabul qilishi, novatorlik darjasи, kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi, ijodkorligi bilan belgilanadi. Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo‘naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

Malakaviy amaliyot paytida ta’lim-tarbiya jarayonida biz dars samaradorligini oshirish, o‘quvchilar bilimini mustahkamlash, o‘quvchilarning darsga qiziqishlarini oshirishda innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo‘llashga harakat qildik. Interfaol metodlar boshqa metodlar singari o‘quv mashg‘ulotning tarkibiy qismi sifatida o‘qituvchi va talaba hamkorligini tashkil etishga yordam berishiga amaliyot davrida amin bo‘ldik. Interfaol metodlarning

asosiy xususiyati o‘quvchilarni faollashtrish va fikrlashni rivojlantrishga sharoit yaratishdir. Ammo ularni mutlaqlashtirib qoyish ham o‘rinli emas, chunki interfaol metodlar yangi bilimlarni berishga xizmat qilmaydi. Ana shu sababli ular bir necha asrlardan buyon ta’lim tizimida qo‘llanib kelinayotgan suhbat, hikoya, tushinrish, ko‘rsatish, namoyish etish, didaktik oyin kabi metodlarni chetga surib qoya olmaydi. O‘quvchini bilimlar bilan qurollantirmasdan turib, fikrlashga va faollikka undab bo‘lmaydi. Chunki, fikr yuritish uchun narsa, hodisa haqida yetarlicha bilimga ega bo‘lish kerak. Bunday metodlarni qo‘llash ta’lim samaradorligi va ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarning o‘qish motivlarini o‘siradi. Bunda an’anaviy ta’limdagi kabi bir xillik asosida emas, balki yangiliklar asosida ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shakllaridan foydalaniladi. Mashg‘ulotlar jarayonida pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol metodlardan foydalanish ta’lim maqsadini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Ta’lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Darsloyihasini tuzishda o‘qituvchi o‘zining ish shakllari va o‘quvchilarning ko‘nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, qanday o‘qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. O‘qitish metodi — ko‘zlangan maqsad, yoki rivojlantirilgan aniq bir maqsadga erishish yo‘lidagi amallar ketma-ketligidir. “Interaktiv” - inglizcha so‘z bo‘lib, “o‘zaro harakat qilmoq” degan ma’noni bildiradi.

Biz darslarda o‘quvchilar bilan birgalikda, juftlikda, guruhlarda ishlashda juda ko‘plab interfaol metod va mashqlardan foydalanishimiz mumkin. Bunda o‘quvchilar ta’lim olish jarayonida guruhlarda, hamjihatlikda ishlaydilar, mustaqil bajaradilar va eslab qoladilar. Bunda birinchi navbatda o‘quvchilarda “do‘stona kelishuv” va “hayotiy ko‘nikmalar” shakllantiriladi. “Do‘stona kelishuv” — intizom, faollik, o‘zaro hurmat, o‘ng qo‘l qoidasi, ijodkorlik, ijodiy jarima, reglament (aniq, qisqa, lo‘nda fikrni bayon qilish) “Hayotiy ko‘nikmalar” — muloqat qila olish, ijodiy fikrlash, stress holatdan chiqib ketish, his-tuyg‘ularni jilovlay olish,

muammolarni hal qila olish, o‘z-o‘zini tahlil qila olish, qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash.

“O‘z o‘rningni top” o‘yinidan so‘z yasalishi haqidagi mavzular tugagandan keyin foydalandik. Bunda turli so‘z turkumiga oid yasama so‘zlar yozilgan kartochkalar o‘quvchilarga tarqatildi. To‘rt o‘quvchi “Ot”, “Sifat”, “Fe’l”, “Ravish” nomlari yozilgan kartochkalarni olib to‘rtga ajratilgan parta yonida turdilar, qolgan o‘quvchilar so‘zlarga qarab guruhlarga ajraldilar. Noto‘g’ri joylashgan o‘quvchilarning o‘rni almshtirildi. Keyin shu so‘zlar ishtirokida kichik matn tuzish topshirig’ini berdik. Kim ko‘p yasama so‘z qatnashtirib gap tuzsa, shu guruh g’olib bo‘ldi.

So‘z yasalishi mavzusini o‘tishda quyidagi usulni qo‘lladik. Matnni o‘qing. Undan yasama so‘zlarni topib tahlil qiling.

Dunyoni selday bosdi

Bahorning gul bosqini,

Sevgining titrog‘lari

Ruhga nurday taraldi.

Ne uchun ko‘zlariningda

Yana ko‘zyosh toshqini?

Yana sog‘inch yaraldimi?...

Yana sog‘inch yaraildi.

• Topgan yasama so‘zlarining asoslaridan qanday yana yasama so‘zlar hosil qilish mumkin?

• Yasovchi qo‘sishimchalar yordamida yana qanday so‘zlar hosil qilish mumkin?

• Fikringizni misollar asosida dalillang

Interfaol dars jarayonlari shunday tashkil etilishi kerakki, bunda barcha talabalalar faollashishi zarur, ya’ni dars o‘tish jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi talabalalar tomonidan mustaqil o‘rganiladi, so‘ngra sinfda har tomonlama muhokama etiladi. O‘qituvchi o‘quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. O‘quvchining sinfda o‘zini erkin his qilishi va o‘quv faoliyatini uni emotsiional jihatdan qoniqtririshi lozim, ana shundagina u o‘zining fikrlarini

erkin bayon qila oladi. Interfaol usullar xilma-hil bo‘lib, qaysi metodni tanlash o‘qituvchining o‘tayotgan mavzusi,darsning maqsadi va vazifalariga bog‘liq. Interfaol mashg‘ulot - o‘qituvchi va talabalalar o‘zaro faol ishtirok etadigan mashg‘ulot, hamkorlikda kechadigan jarayon.

Innovatsion jarayonlarda interfaol metodlarning qo‘llanishi darslarda beixtiyor psixologik o‘yin yoki musobaqaga aylantirib, yuqorida tilda olingan bo‘sh talabalalar ni ham bir oz bo‘lsa-da, o‘z fikrlarini keng ommaga izhor etishga, umuman sinfda kechayotgan bahs-munozaralarga befarq bo‘lmasdan, faol ishtirok etishga undaydi. Talabalalar ni faollashtirish uchun dars jarayonida qo‘llaniladigan usullarni to‘g‘ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi. Buning uchun darsga, mavzuga qo‘yilgan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yo‘li, usuli puxta ko‘rib chiqilishi lozim. Demak, o‘qituvchi har bir foydalanadigan interfaol usulni o‘quvchiga nima berishini oldindan ko‘ra olishi va darsni to‘g‘ri tashkil qilishi kerak. Demak, siz qo‘llanmoqchi bo‘lgan interfaol usulini ko‘rib bo‘lgach, o‘zingizga kerakli rasm, tarqatma material ko‘rgazmalardan keragini qirqib olib konvertga solib qo‘yishingiz, mavzularni o‘rgatishda ishlatishtingiz mumkin.

Ta’lim sohasidagi bosh maqsad - ta’lim va tarbiyaning demokratik, insonparvarlik printsiplarini qaror toptirish, xalqimizning tarixiy an’analari va urfodatlari, shuningdek, umumbashariy qadriyatlar asosida ta’lim – tarbiya jarayoni mazmunini tubdan o‘zgartirish, shu maqsadda pedagogik jamoalarning tashabbuskorligiga keng imkoniyat ochib berishdan iboratdir.

Interfaol metodlar – o‘quv jarayonini muayyan shaklda loyihalashtirishdir. Yangi pedagogik texnologiya esa an’anaviy dars qurilishini zamonaviy interfaol usul, noan’anaviy shaklda o‘ziga xos qayta loyihalashtirishdir. Bu loyiha shuni taqozo etmog‘i lozimki, avvallari o‘quvchi muallimdan bilimni tayyor holda olgan bo‘lsa endilikda mashg‘ulotda qo‘yilgan turli muammoli topshiriqlarni bajarish asnosida mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish, mantiqiy xulosa chiqarish orqali boshqacha qilib aytganda muayyan darajada mehnat qilib bilim oladi. Shuningdek

ko‘nikma va malakalar ham mantiqiy fikrlashni talab qilgan mashqlar ta’limiy o‘yinlar qiziqarli ijodiy ishlar vositasida hosil bo‘ladi.

3.2. Ochiq dars ishlanmasi

Sifatlarning yasalishi

6-sinf

(Bir soatlik dars ishlanmasi)

Darsning ta’limiy maqsadi: sifatlarning yasalishi, sifat yasovchi qo‘shimchalar haqida ma’lumot berish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda oilaga va ona tabiatga mehr-muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish, insonparvarlik xususiyatlarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, ijodiy qobilyatlarni rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish.

Darsning jahozi: sinf taxtasi, darslik, elektron darslik, rangli rasmlar, flomaster, gul, kompyuter.

Darsning usuli: “Aqliy hujum”, “Tushunchalar tahlili” usuli

Mashg‘ulot “Bahor valsi” kuyi bilan boshlanadi. Salomlashilgandan so‘ng uyga vazifa tekshiriladi. “Tong” mavzusidagi matnni o‘qib berish bilan dars davom etadi.

Tong.

Tonggi shudring, tonngi shabada, tonggi shabnam – soflik ramzi. Quyosh nurlarning porlab turishi hayotning yer yuzida davom etayotganidan darak beruvchi elchidir. Maysalarning, gullarning, barglarning ustiga tushgan shudring tomchilar olmos kabi yaltirab, ko‘ngilni shod etadi...

O‘quvchilar matnni diqqat bilan eshitib, matnda keltirilgan sifatlarni eslab qilishga harakat qiladi. Matnni tuzishda ijodkorlik bilan yondashib, badiiy so‘z san’atidan mohirlik bilan foydalana olgan va matndagi sifatlarni yaxshi eslab qolgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladilar.

“Aqliy hujum” metodi.

Sinf o‘quvhilari bunda gurhularga bo‘linadi, o‘tilgan mavzulari yuzasidan har bir guruhga 2 tadan savol beriladi. Savollar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

1-guruh: Qanday so‘zlar sifat so‘z turkumiga oid bo‘ladi?

Sifatlar gapda qanday gap bo‘lagi bo‘lib keladi?

2-guruh: Sifatlar qaysi so‘z turkumiga bog‘lanadi?

Mustaqil so‘zlar bilan yordamchi so‘zlar qanday farqlanadi?

3-guruh: Sifatlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?

Sifatlarning qanday turlarini bilasiz?

4-guruh: Qanday so‘z yasovchi qo‘sishimchalarni bilasiz?

5-guruh: So‘z tarkibi nimplardan iborat bo‘ladi?

Qo‘sishimchalar vazifasiga ko‘ra necha turga bo‘linadi?

“Aqliy hujum”dan so‘ng musobaqada faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. G‘olib guruh e’lon qilinadi. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida “Zanjir” o‘yini o‘tkaziladi. Har bir guruh a’zosi o‘z ismlarining bosh harfi bilan boshlanadigan sifatlarga misollar topib, gulni bir-birlariga tezkorlik bilan uzatishadi. Ikkilanib qolgan yoki xato qilgan o‘quvchi zanjirni uzgan hisoblanadi va o‘yindan chetlashtiriladi. 2-o‘yin sifatlardan atoqli otlarga o‘tgan sifatlarga navbat bilan misollar keltirish.

Yangi mavzu bayoni: muammoli vaziyat paydo qilish bilan boshlanadi. O‘quvchilarning qo‘llariga yelimli yopishqoq qog‘ozga so‘z yasovchi qo‘sishimchalar yozilgan holda tarqatiladi va doskaga o‘tilgan mavzulari:

OT - FE’L yoziladi.

O‘quvchilarning qo‘lidagi so‘z yasovchi qo‘sishimchalarqaysi so‘z turkumiga oid bo‘lsa, os`ha so‘z turkumining tagiga qog‘ozda yozilgan so‘z yasovchi qo‘sishimchalar yopishtiriladi. Har ikkalasiga ham mansub bo‘lmagan qo‘sishimchalar doska chetiga yopishtiriladi. Taxminan, doskada shunday ko‘rinish hosil bo‘ladi:

OT FE’L

-don	-la	-li
-dosh	-lan	-dor

-chi	-lash	no-
-bon	-ira	-choq
-boz	-sira	-iq
		-chil


Chetga yopishtirilgan qo'shimchalar qaysi so'z turkumiga oid ekanligi dars so'ngida yechiladi.

Shundan so'ng xatolar bo'lsa, tuzatilib, darslikdagi topshiriqlarga e'tibor qaratiladi.

Topshiriqdagi berilgan so'zlar tarkibiy qismlarga ajratiladi: shirin, oq, katta, shirali, mazmun-dor, ser-unum, kam/hosil, ko'yak/bop, xush/fe'l. o'quvchilarga Sifatlarning yasalishi “**slayd**” orqali tushuntiriladi.

Sifatlar ikki xil usul bilan yasaladi:






Slaydga – gulli mato, tadbirkor kishi, serhasham uy, g‘amxo‘r qiz suhbatlashayotgan holati tasvirlanadi.


O‘sha rasmlarga so‘z yasovchi qo‘srimchalar qo‘silib, sifat hosil qilinishi tushuntiriladi. Masalan: mato, tadbirkor kishi, serhasham uy, g‘amxo‘r so‘zlari tasnif qilinadi. So‘z yasovchi qo‘srimchalarning vazifasi, asosga qo‘silib, sifat hosil qilishi boshqa so‘z turkumlaridan sifatlarning yasalishi tushuntiriladi.

**Shu o‘rinda shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noli qo‘shimchalar haqida ham
ma’lumot berib o‘tiladi.**



BILIB OLING. Sifatlar tarkibiga ko‘ra tub va yasama sifatlarga bo‘linadi. Tarkibiy qismlarga bo‘linmaydigan sifatlar tub sifatlar, asos va so‘z yasovchi qismidan iborat bo‘lgan sifatlar esa yasama sifatlar hisoblanadi. Yasama sifatlar asosga qo‘shimchalar qo‘shish yoki so‘z qo‘shish yo‘li bilan hosil qilinadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun “328-mashq” yozma bajariladi. To‘g‘ri va xatosiz bajargan o‘zuvchilar rag‘batlantiriladilar. O‘zlashtirishga qiynalgan o‘quvchilar o‘qituvchining diqqat markazida bo‘ladi. Ularga individual yordam ko‘rsatiladi. O‘quvchilar qo‘llarida oldindan tayyorlangan quyidagi:



Shaklidagi ko‘rsatkichlar bo‘ladi. O‘qituvchi tomonidan aralash o‘qilgan sifatlarni (**katta, shirin, shiroyli, odobli, guldor, sariq, oq, serdaromand, qizil, bezarar, shinam, yaxshi, basavlat, nodon, unumsiz, sho‘x, vijdonsiz, tetik, ziyrak, sirdosh, shaxsiy, oddiy, zulmkor, achchiq**) tezlikda tub yoki yasama sifatlarga ajratilib qaysi sifatga oid ekanligini qo‘lidagi ko‘rsatkichlar orqali ko‘rsatib boradilar. Yuqorida ko‘rsatkichlar orqali ajratib beradilar. Bu o‘yin ham o‘qituvchi tomonidan ziyraklik bilan kuzatib boriladi. Faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. O‘zlashtirishga qiynalayotgan o‘quvchilar ham o‘qituvchi nazaridan chetda qolmasligi kerak. 3-4 martagacha xato qilgan o‘quvchiga qo‘shimcha topshiriq – tarqatma materiallar beriladi. Ballar yig‘ilib, g‘olib guruh e’lon qilinadi. Dars so‘ngida o‘quvchilar bahosi eshittiriladi. Shundan so‘ng muammoli vaziyat o‘quvchilar bilan birgalikda hal qilinadi, demak, yozuv taxtasi

chetiga yopishtirilgan so‘z yasovchi qo‘sishimchalar sifat so‘z turkumiga oid ekanligini o‘quvchilar o‘zлari xulosalab beradi va ajratilgan so‘z yasovchi qo‘sishimchalar tepasiga “**Sifat**” deb yozib qo‘yiladi. Yozuv taxtasida qo‘yidagi ko‘rinish hosil bo‘ladi.

OT	FE’L	SIFAT
-don	-la	-li
-dosh	-lan	-dor
-chi	-lash	no-
-bon	-ira	-choq
-boz	-sira	-iq
		-chil

Muammo shu tarzda yechiladi. Darslikdagi 328-mashq yozma daftarda, 330-mashq kompyuterda bajariladi.

Uyga vazifa qilib “**329-mashq**” beriladi, dars so‘ngida baholar eshittirilib, g‘olib guruh e’lon qilinadi, faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘barlantiriladi. O‘zlashtirishga qiynalgan o‘quvchilar qo‘sishimcha darslarga jalb qilinadi.

XULOSA

Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar har bir pedagogdan o‘z ustida tinmay ishlashni, izlanishni talab etmoqda. Ona tili ta’limiga keyingi yillarda katta e’tibor berilayotganligi, o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirish, o‘z fikrini erkin bayon eta oladigan shaxs tarbiyasi asosiy vazifa qilib belgilanganligi sir emas. Ushbu bitiruv ishini olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llsh natijasi sifatida yuzaga keldi.

O‘zbek tilida so‘z yasalishi mavzusini o‘qitish jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, innovatsion usullarni, grafik organayzerlarni qo‘llash mavzuni yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi.O‘quvchilar ko‘rish, yozish, masalani yechish uchun mushohada yuritish orqali mavzuni yaxshi o‘zlashtiradilar. So‘z yasalishi mavzusinio‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan samarali usullar haqida quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

1. O‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi mavzusi yetarlicha tadqiq etilganligiga qaramay, mavjud nazariy adabiyotlarda fikrlar xilma-xilligiga duch kelish mumkin. So‘z yasalishi maktab darsligida alohida bo‘lim sifatida berilmay, har bir so‘z turkumini o‘tish jarayonida shu turkumga xos hodisa sifatida berilgan. Har bir darsda o‘quvchilarning mavjud nazariy bilimlarni puxra o‘zlashtirishlari va ularni amalda qollay olish malakasini shakllantiruvchi mashqlar bilan mustahkamlangan.

2. Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak kafolatli natijalarga erishishdir, bunga erishida innovastion pedagogik texnologiyalar to‘la ishonchli vosita bo‘la oladi.

3. O‘quv fanlari mavzularining ilg‘or pedafofik texnologiyalar asosida o‘qitilishi ta’lim jarayonining har bir uzvi boshqalari bilan mantiqiy aloqadorlikda puxta va to‘la texnologiyalashtirilishini ta’minlaydi. Bu esa ta’lim natijasini kafolatlaydi.

4. So‘z yasalishi mavzusinio‘qitishdapedagoglar tomonidan interfaol metodlardan o‘rinli, maqsadli, samarali foydalanish ta’lim oluvchida muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g‘oyalarni

sintezlash, tahlil qilish, o‘z qarashlarini bayon eta olish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni topa olish, xulosa chiqara olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

5.O‘quvchilarning so‘z yasalishiga oid bilimlarinini o‘sirish orqali ularning lug‘at boyligi oshishiga erishiladi. Badiiy adabiyotlardan misol to‘plash, ularni tahlil qilish til va adabiyot ta’limining uzviyligini ta’minlaydi.

6. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarda, xususan, turli o‘yin texnologiyalari, grafik organayzerlardan foydalanish o‘quvchilarning mavzuga qiziqishlarini ortishiga, bir xillikdan qochishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами.2017. 14(774)-сон
4. Abdullaeva D. Yangi pedagogik usullarda dars o‘tishni ta’minlashda foydalaniladigan usullar. – Andijon, 2001.
5. Azizzxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.
6. Эргашева А. Она тили дарсларида назарий маълумотларни мустаҳкамлаш жараёнида нутқ ўстириш методикаси.–Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2010. – Б. 69
7. Ҳасанова Д. Сўз ясалиши номинация назариясининг объекти сифатида.//Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари.(Республика илмий -назарий анжумани материаллари) № 5 -Тошкент.2011. –Б. 150-154
8. Ҳожиев. А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. -Тошкент, 1979.
9. Ҳожиев А.Ўзбек тилида равиш ясалиши тизими масаласига доир./Ўзбек тили ва адабиёти, 2001.2-сон.-Б.42-46
- 10.Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Toshkent: ЎМЭ, 2002
- 11.Ҳожиев А.Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. -Тошкент: Фан, 2010.
- 12.Jamolxonov. H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-Toshkent, 2013.
- 13.Мавлонова К.Она тили дарсларида бадиий матннинг тил хусусиятларини интеграциялаш асосида ўрганиш методикаси. .–Тошкент:Mashhur press, 2016.
- 14.Мирзақулов Ш. Ўзбек тилида сўз ясалиш маъноси ва парадигмаси.Филол.фан.номз.дисс...автореф.: - Самарқанд: 1995
- 15.Muhitdinova X. S. Til ta‘limining xalqaro kompetensiyaviy talablarini o‘zbek tiliga joriy etishga doir mulohazalar// Til va adabiyot ta’limi, 10- son. B.6-8, 2015.

- 16.Педагогик маҳорат ва педагогик технологиялар / Маъruzalар матни. Туз.: А.Х.Қосимов, Ф.А.Ҳоликова. – Тошкент: ТАТУ, 2004.
- 17.Қосимова Н. Она тили таълими жараёнида ўқувчилар нутқини сўзнинг маънодошлари билан бойитиш. Пед.фан.ном. ... дисс. автореферати. – Тошкент, 1998. – 23 б.
- 18.Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M, Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma. – Toshkent: TDPU, 2013.
- 19.Сайидаҳмедов Н. Ноанъанавий дарс. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003.
- 20.Сайфуллаева Р., Менглиев Б.ва бошқалар.Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2009
- 21.Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент. 2009.
- 22.Султонова Г.А. Педагогик маҳорат. – Тошкент: ТДПУ, 2005.
- 23.Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992
- 24.Тўраходжаева А., Ҳасanova Д. Ўзлашма луғавий бирликлар -янги сўз ясаш манбаи./Ўзбек тили ва уни ўқитиш масалалари. Республика илмий-назарий конференцияси. -Тошкент: 2017. –Б.119
- 25.Yusupova Sh. Ona tili o‘qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Т., 2013.
- 26.Юсупова Т. Гапнинг бош бўлакларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг лингвометодик асослари: Пед. фан.ном. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 157 б.;
- 27.Юсупова Т. Гапнинг бош бўлакларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстириш. – Тошкент, 2006. – 87 б.
- 28.Yo‘ldoshev I. va boshqalar. Tilshunoslikka kirish (darslik). -Toshkent, 2013.
- 29.Yo‘ldoshev R.A. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining og‘zaki nutqini ularni ko‘p gapirtirish orqali o‘sirish metodikasi (monografiya). – Т.: Fan va texnologiya, 2012. -214 b.

30. Йўлдошева Н. Умумий ўрта таълим мактабларида синонимларни янги педагогик технология асосида ўқитиш: Пед.фан.ном. ... дисс. автореферати. – Тошкент, 2002. – 24 б.;
31. Зиёдова Т. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш: Пед.фан.ном. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 141 б.;
32. Ўзбек тили грамматикаси.-Тошкент: Фан, 1975.1-том.
- 33.Ғуломов А.Она тили ўқитиш принциплари ва методлари.-Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
- 34.G‘ulomov A., Qodirov M va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi.-Toshkent, 2012.
- 35.Шоабдураҳмонов Ш., Аскарова М. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980;

Tayanch so‘zlarning o‘zbekcha-ruscha-inglizcha lug‘ati

Leksema - lexeme -лексема

Leksemaga xos - lexemic -лексемный

Leksik - Lexical -Лексическая

Leksik - grammatik - lexical - grammatical -лексико - грамматический

Leksik - semantik - lexical - semantic -лексико - семантический

Leksikologiya - lexicology -лексикология

Leksikon- lexicon - лексикон

Lingvistik geografiya - Linguistic geography — Лингвистическая география

Lingvistik iqtisod - Linguistic economy — Лингвистическая экономия

Lug‘at tarkibi - lexics - лексика

Lug‘atchilik - Lexicography —Лексикография

Morfema, ma’noli qism - morpheme - морфема

Morfemik - morphemic - морфемный

Morfemika - morphemics - морфемика

Nutq - Speech system — Речь

Nutq apparati - Vocal apparatus — Речевой аппарат

Nutqbirligi - A unit of speech — Единица речи

Nutqmadaniyati - Speech culture — Культура речи

So‘z ko‘chirish - Carry the words — Перенос слова

So‘zo‘yini - A play on words — Игра слов

So‘zyasalish modeli - Derivational model — Словообразовательная модель

So‘zyasalishi- Word formation — Словообразование

So‘zlashuv uslubi - Conversational style — Разговорный стиль

So‘zlashuvnutqi - colloquialism - разговорное выражение

So‘zlashuvnutqi leksikasi - Vocabulary conversational speech — Лексика разговорной речи

Taraqqiyot - development -развитие

Tarixiy so‘z - historicism - историзм

Tahlil - Analysis — Анализ

Tahlilqilmoq - Analyze - Разлагать, анализировать

Tashqi omillar - External factors — Внешние факторы

Tejamlilik - economy - экономия

Til, nutq - language - язык; речь